



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT
BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI

“2.1. JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARI”

moduli bo‘yicha

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari” malaka
oshirish yo‘nalishi uchun



Samarqand - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI**

**2.1. JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA AXBOROT-
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI**

moduli bo‘yicha
“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari”
yo‘nalishi uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Mazkur o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi bilan 2023-yil 29-dekabrda kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

- A.A.Tolametov - Institutning "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası professori
- A.K.Ishonkulov Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası dotsenti v.v.b.

Taqrizchilar:

- J.Mannabov - Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, "Iqtisodiyot va muhandislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)
- Z.Saydullayev - Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası dotsenti v.v.b.

O'quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2024-yil 24-dekabrdağı 10-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULDAN FOYDALANGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	14
III.	NA'ZARIY MASHG'ULOTLAR	17
IV.	AMALIY MASHG'ULOTLAR	42
V.	KEYSLAR BLANKASI	89
VI.	GLOSSARY	90
VII.	TESTLAR.....	94
VIII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	106



ISHCHI O'QUV DASTURI

2.1

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**



**“Tasdiqlayman”
Institut rektori**

I. Tursunaliyev

2024-yil “ ”

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARI**

moduli bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

“Jismoniy tarbiya yo'riqchisi”

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan
jismoniy tarbiya yo'riqchilari malaka oshirish kursi uchun

Toshkent – 2024

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan 2023-yil 29-dekabrda kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:

- A.Tolametov** - "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori v.b.
- Q.Mamajonov** - Farg'ona filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- A.Xaydarov** - O'zMU "Amaliy matematika va kompyuterli tahlil" kafedrası, m-f.f.n., dotsent
- R.Xudoyberdiyev** - "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Ishchi o'quv dasturi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2024-yil 3 - yanvar da o'tkazilgan 1 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



J.A.Pulatov

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi:

- Tinglovchilarni jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hozirgi jamiyatda tutgan o'rnini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tuzilishi, ishlash asoslarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minotlar bilan tanishtirish, tizimli dasturiy ta'minot, amaliy dasturiy ta'minotlar, internet tarmog'i haqida bilimlarini takomillashtirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarda jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning istiqbollari;
- internet va uning asosiy imkoniyatlarini;
- Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlari, sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish hamda ta'lim portali doirasida yaratilgan loyihalarida unumli foydalanish;
- ta'lim oluvchilar tomonidan kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish usullarini;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlardan mehnat faoliyati davomida foydalanishni;
- amaliy dasturlar, internet resurslaridan amalda foydalana olishni;
- o'quv dasturining alohida mavzulari doirasida talab etiladigan va ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hamda ta'lim jarayonini baholash haqida *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- kasbiy faoliyatida o'z tajribasini oshirish uchun mavjud manbalardan foydalanishda axborot texnologiyalari;
- kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida didaktik funksiyalarini aniqlay olish, ularni tegishli o'quv dasturlariga kiritish olish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ta'lim oluvchiga yangi metod va usulublarini joriy etishda yordam beradigan ta'lim resurslari va axborot texnologiyalarini tanlay olish hamda o'quv-me'yoriy hujjatlarda bayon etish;
- Internet resurslari, elektron pochta va qidiruv tizimlaridan foydalana olish kabi **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya yo'nalishidagi ta'lim jarayonining takomillashtirishda qo'llaniladigan elektron ilovalar (jumladan, ta'lim oluvchilarning davomati, turli baholash natijalari bilan bog'liq dasturlar)dan foydalanish hamda tegishli hisobotlarni tayyorlash;
- malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi, "Jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati" o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini texnik vosita sifatida mashg'ulot jarayonida qo'llash imkoniyati mavjudligini hamda mashg'ulotda hamkor hisoblanishini, jismoniy tarbiya yo'riqchisiga yordam ko'rsata olishini shu bilan uni faol bo'lishga rag'batlantirishini va uning moslashuvchanligi, mashg'ulot jarayonini individuallashtirishga yordam berishga doir kasbiy malakaga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	2	2	2			
2.	Internet tarmog‘i xizmatlari va ulardan foydalanish	2	2		2		
3.	Ziyonet ta’lim portali	2	2		2		
4.	Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish	2	2		2		
	Jami:	8	8	2	6		

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu. Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Reja:

- 1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi
- 1.2. Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalari qo'llash
- 1.3. Axborot xavfsizligi

Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot texnologiyalari tushunchasi. Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligining tashkiliy-ma'muriy ta'minoti. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

2-mavzu. Internet tarmog'i xizmatlari va ulardan foydalanish

Reja:

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali
- 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari

2.3. Internetdagi onlayn tizimlar va ulardan foydalanish

Internet va uning xizmatlari. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanish. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari. Ovozli bloknot ilovasi.

3-mavzu. Ziyonet ta'lim portali

Reja:

- 3.1. Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlari.
- 3.2. Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish.
- 3.3. "uTube.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.
- 3.4. "Fikr.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.

ZiyoNET portalining resurslari: "Audiokitoblar", "Kutubxona", "Ta'limiy muassasalar", "Usport.uz"- sportga oid yangiliklar sayti. Ziyonet ta'lim portali doirasida yaratilgan loyihalari "uTube.uz"- ta'limiy video portali. "Fikr.uz" — shaxsiy va jamoaviy bloglar sayti.

4-mavzu Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish

Reja:

- 4.1. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.
- 4.2. Jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari.

Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari, turli elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. -T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Uchinchi nashri. -T.: "O'zbekiston", 2022.-440 bet.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ -637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 22-avgustda "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-357- sonli Qarori..
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-may "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi//Uslubiy qo'llanma.-F.: Umid Design, 2023.-65b.
2. Pulatov J., Xudoyberdiyev R.F., Sportda axborot-kommunikasiya texnologiyalari//Uslubiy qo'llanma.-T.: Umid Design, 2022.-56b.
3. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. -T.: Umid Design, 2021.-192 b
4. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish // O'quv qo'llanma. -T.: Umid Design, 2021.-172b.
5. Tolametov A.A., Mamadjanov N., Sport metrologiyasi//O'quv qo'llanma.- T.: Umid Design, 2022. – 252 b.
6. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda “Hot Potatoes” dasturidan foydalanish”//Uslubiy qo'llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019.-55 b.
7. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Microsoft Word dasturida ishlash// O'quv qo'llanma. –T.: Umid Design, 2022. – 122 b.
8. Tolametov A.A., Microsoft Excel dasturida ishlash//O'quv qo'llanma.–T.: Umid Design, 2022. – 160 b.
9. Tolametov A.A., MS Office PowerPoint 2010 dasturida ishlash//Uslubiy qo'llanma.-T.: Umid Design, 2021. – 96 b.
10. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., Axborot texnologiyalari// O'quv qo'llanma.-T.: O'zDJTI, 2008 -120 b.
11. Tolametov A.A., Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari// O'quv qo'llanma.–T.: Zamon Poligraf, 2023. – 244 b.
12. Tolametov A.A., Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish// Uslubiy qo'llanma.–T.: Zamon poligraf, 2023. – 64 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://sportedu.uz>
4. <http://uzedu.uz>
5. <http://lib.sportedu.uz>
6. <http://ziyonet.uz>
7. <https://umail.uz>
8. <https://mpe.uz>

The page features two large, solid blue squares. One square is positioned in the top right corner, and the other is in the bottom right corner. They are separated by a horizontal light blue band that contains the title text.

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II MODULDAN FOYDALANGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Metodning maqsadi:

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi

S – (strength)	• Kuchli tamonlari
W – (weakness)	• Zaif kuchsiz tamonlari
O – (opportunity)	• Imkoniyatlari
T – (threat)	• To'siqlar

" Muammoli vaziyat " – metodi .

Muammoli vaziyat metodi — tinglovchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish **bosqichlari**:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Yechimni tekshirish.


"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi:

Mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Bilimlar omborida jamlanadigan ma'lumotlar





NAZARIY MATERIALLAR

III. NA'ZARIY MASHG'ULOTLAR

1-Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Nazariy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi:	1.1.Axborot texnologiyalari tushunchasi. 1.2.Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalari qo'llash. 1.3.Axborot xavfsizligi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Nazariy mashg'ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga axborot, ma'lumotlar, telekommunikatsiya, sportda zamonaviy axborot texnologiyalari, veloergometriya haqida bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - mashg'ulot davomida jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ularning hozirgi jamiyatda tutgan o'rni tushuntirish; - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tuzilishi, ishlash prinsiplari; - arxitekturasi haqidagi bilimlarini takomillashtirish o'rgatish;	O'quv natijalari: Nazariy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha; 2. Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalari qo'llashda erishilayotgan natijalar, elektron sport anjomlari; 3. Axborot xavfsizligi haqida tushuncha, axborotni himoyalash usullar;
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, prezentatsiyalar.
Ta'lim shakli:	Frontal, guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

1-Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Reja:

- 1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi.
- 1.2. Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalari qo'llash.
- 1.3. Axborot xavfsizligi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya va sportda axborot - kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot texnologiyalari tushunchasi. Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligining tashkiliy-ma'muriy ta'minoti. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari.

1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi.

Jamiyat tarrafiyotida bir yechimga kelishdan, qaror qabul qilishdan oldin ushbu masalaga (sohaga) aloqador bo'lgan juda ko'plab ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish zarur bo'ladi.

Bunday ma'lumotlar to'plami shu qadar ko'payib ketganki, ularni qayta ishlash va tahlil qilishni maxsus texnik tizimlar yordamisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Kundalik hayotda qabul qilish va qayta ishlash zarur bo'lgan axborotlar hajmi nihoyatda ortib borayotganligi sababli, ba'zan ularni qabul qilishga ham ulgurishmayapti.

Axborot va ma'lumotlar hajmining bu qadar ko'payib ketishi, oqimning esa tezlashib borishini asosiy sabablaridan biri informatsion texnika va texnologiyalarning rivojlanishi — zamonaviy eng yangi texnologiyalarni qo'llash, xom ashyolardan oqilona foydalanish, energetik resurslardan tejamkorlik bilan ishlatish, inson mehnatini yengillashtirish hisobiga amalga oshirishdan iboratdir.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish to'g'risidagi Hukumat qarorlari, tegishli vazirliklarning me'yoriy hujjatlari qabul qilinib, qaror va farmonlar ijroga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2002 yil 30 may PF – 3080-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2012 yil 21 martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli qarori qabul qilindi.

Axborotlarni tezkorlik bilan yig'ish, qayta ishlash, jarayon, voqea va hodisalarni modellashtirish, ularni tahlil qilish imkoniyatini beruvchi kompyuterlashtirilgan tizimlar va boshqa informatsion texnologiyalari kirib kelishini anglatadi.

Zamonaviy informatsion texnologiya va telekommunikatsiya asosida davlat hokimiyati turli vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, hamda fuqarolarning informatsiyaga bo'lgan ehtiyojlarini yetarli va to'la qondira oladigan optimal sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnikaviy jarayonlar tushuniladi. Birinchi bo'lib informatizatsiya AQSHda keng yoyila boshlangan.

Texnologiya so'zi grekchadan tarjima qilinganda san'at, mahorat, ko'nikma kabi ma'nolarni anglatadi. Jarayon deganda esa qo'yilgan maqsadga etishish borasidagi barcha harakatlar majmuasi tushuniladi.

Informatsion texnologiya-obyekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagi ma'lumotlarni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan mutlaq yangi ko'rinishga keltiruvchi, ma'lumotlarni to'plash va uzatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. Informatsion texnologiya–informatsion tizimlar bilan bog'liqdir.

Informatsion tizim-belgilangan maqsadga erishish uchun informatsiyani uzatish va qayta ishlash, saqlash uchun qo'llaniladigan usullar, shaxslar va vositalarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zida ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatuvchi bir nechta turdagi elementlar majmuasi tushuniladi.

Axborot (lotincha "informatio" so'zidan olingan bo'lib) tushuntirish, xabar berish degan ma'noni anglatadi. Hozirgi vaqtda axborot materialning asosiy xususiyati sifatida qaralmoqda. Axborot tushunchasi, umumiylikka ega bo'lgan holda, mazmun jihatidan falsafiy, umumiylikka ega bo'lgan holda, mazmun jihatdan falsafiy kategoriyalar safidan o'rin oldi.

Shakllangan (formalizatsiyalangan) ko'rinishda taqdim etilgan axborot – ma'lumot deyiladi. Axborotlarni saqlash axborot tashuvchidan har xil holatlarda joylashgan, axborotlarni qayd qiladigan obyekt mavjudligini talab qiladi.

Axborot tashuvchilar bir marta foydalanishlik (qog'oz, fotoplyonka, fotoqog'oz, perfokarta) va ko'p marta foydalanishlik (magnit qoplamasi, optik qoplama) ekranni elektron-nurli trubka qatlami bilan farqlanadi. Bir marta foydalanishlik axborot tashuvchidan ko'p marta foydalanishlik axborot tashuvchining farqi shundaki, ko'p marta foydalanishlik axborot tashuvchining fizik holatini o'zgartiradi. Axborot uzatish ikkita axborot tashuvchining mavjudligi (uzatuvchi va qabul qiluvchi) va aloqa kanalni uzatuvchi holatini qabul qiluvchi holatiga yetkaza olishni mo'ljallaydi.

Axborot va uning turlari

Axborot manbalari va iste'molchilarning har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keladi:



Matnli – harf, raqam va belgilar to‘plamidan tarkib topgan axborot.



Texnologiya – grekcha tildan tarjima qilinganda san’at, mahorat kabi ma’nolarni bildiradi.

Kompyuter tizimi – ma'lumotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish tizimi hamda xotira tizimi.

Axborot tizimi – kompyuter, kompyuter tarmoqlari, foydalanuvchilar, axborot va dasturiy ta'minot.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarni shaxsiy kompyutersiz tasavvur qila olmaymiz shaxsiy kompyuter 1973-yil Fransiyada Truong Trong Ti tomonidan ishlab chiqarilgan. Avvaliga mazkur kompyuter elektron o‘yinchoq sifatida qabul qilingan. So‘ngra bu kompyuter 1977-yilda amerikalik Stiv Jobs boshliq Apple Compyuter firmasi tomonidan mukammallashtirilib, ommaviy ravishda chiqarila boshlandi. Kompyuter — bu turli hajmdagi, har xil ko‘rinishdagi axborotlarni tezlik bilan ishlab berishni ta’minlovchi universal avtomatik qurilmadir.

Birinchi navbatda ta'lim va mashg'ulot jarayonida kompyuterdan foydalanish uchun ta'lim beruvchi uni ishga tushirish, undan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator operatsiyalarni bajarishi talab qilinadi.

Kompyuterning umumiy ko‘rinishini keltirib o‘tamiz.

Kompyuterning asosiy va qo‘shimcha qurilmalari umumiy tuzilishini


1-rasmda ko'rish mumkin:



1. Monitor.
2. Sistemalı blok.
3. Klaviatura.
4. Sichqoncha

1.1-rasm Shaxsiy kompyuter

Klaviatura. Klaviatura 101-105 tugmachalardan iborat. (1.2-rasm)



1.2-rasm. Klaviatura

O'z vazifalariga ko'ra tugmachalar beshta guruhga bo'linadi:

1. Harflar va sonlarni kiritadigan tugmachalar. Ular oddiy yozuv mashinalarning tugmachalariga o'xshaydi.
2. Boshqaruvga oid tugmachalar.
3. Funksional yoki amal tugmachalar.
4. Kichik sonlar kiritadigan tugmachalar.
5. Maxsus belgilardan iborat tugmachalar.

Eng katta guruh — birinchi guruh bo'lib, ular yordamida rus va lotin katta-kichik harflari, sonlar, maxsus belgilar, tinish belgilari kompyuterga kiritiladi. Pastda joylashgan uzun, hech qanaqa belgisi bo'lmagan tugmachaning nomi Spaerbar yoki Space deb ataladi va bo'shliq belgisini kiritishga mo'ljallangan. Boshqa tugmachalar bir necha nomga ega, chunki ular klaviaturaning ish tartibiga (registriga) qarab turli belgilarni kiritishga mo'ljallangan.

Sichqoncha

Sichqoncha odatda ikki yoki uch tugmachali bo'ladi: chap, o'ng va o'rta. Chap va o'ng tugmachalar programma asosida almashtirilishi mumkin. (1.3-rasm) Odatda chap

tugmacha yordamida asosiy amallar (ajratish, surish, bajarish va h.k.) bajariladi. o'ng tugmacha kontekst menyu deb ataluvchi amallarni bajarish uchun xizmat qiladi. Kontekst menyuning vazifasi joriy holatda u yoki bu amalni tezroq bajarish bilan bog'liq. o'rta tugmacha hozirda xususan, varaqlash (Page Down, Page Up amaliga o'xshab) maqsadlari uchun qulay.



1.3-rasm. Sichqoncha

Tugmachalarni sekin bosish kerak, kuch ishlatish mumkin emas. Harflar kiritish paytida tugmachani ko'p ushlab turish kerak emas. Aks holda, o'sha bosilgan harf ekranga ketma-ket chiqa boshlaydi.

Monitorlar – kompyuter xotirasidagi axborotlarni insonga tushunarli ko'rinishda tasvirlaydi. (1.4-rasm)



1.4-rasm. Monitor

Sistema bloki odatda desktop (yassi) yoki town (minora) ko'rinishida ishlab chiqariladi. **(1.5-rasm)**

Yassi va minora ko'rinishidagi sistema bloklari



1.5-rasm. Sistemali blok

Kompyuterning asosiy qismlari sistema blokida joylashgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

Tezkor xotira (RAM-Random Access Memory-ixtiyoriy kirish mumkin bo‘lgan) mikroprotsessor, qurilmalar nazoratchilari, (ya’ni kontrollerlar, adapterlar, elektr manbai bilan ta’minlash bloki), yumshoq disk qurilmasi (FDD-Floppy Disk Driver), qattiq disk qurilmasi (HDD-Hard Disk Driver), faqat o‘qish uchun mo‘ljallangan lazer disk qurilmasi (D ROM-compatible Disk Read Only Memory), shinalar, modem va boshqa qurilmalar. Sistema blokiga uning parallel (LPT) va ketma-ket (COM) portlari orqali ko‘plab tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Shuningdek, kompyuterda ishlash jarayonida unga boshqa texnika vositalarini ham ulashga zarurat tug‘iladi. Chunki axborotlar qabul qilib olish uchun modemlar, ovozli tarzda axborotlarni kiritishda mikrofon, kompyuterdagi ma’lumotlarni ovozli tarzda ifodalashda karnaychalar, kompyuterdagi ma’lumotlarni qog‘ozda chop qilish uchun printer, ma’lumotlarni ekranga uzatishda videoglaz va videoprojektor, televizorga tizimli blokni ulash, ba’zi rasm va hujjatlarni kiritishda skaner, rasmlarni kompyuterga joylash uchun esa raqamli fotoapparat, android telefonlarni va raqamli videokameralarni ulashga to‘g‘ri keladi.

Chop etish qurilmalari

Printer — ma’lumotlarni qog‘ozga chiqaruvchi qurilma. Barcha printerlar matnli ma’lumotlarni, ko‘pchiligi esa rasm va grafik ma’lumotlarni rangli ko‘rinishda qog‘ozga chiqaradi. Printerlarning quyidagi turlari mavjud (1.6-rasm):



1.6-rasm.Printerlar

Printerni kompyuterga ulash tartibi.

Printerni kompyuterga ulashning 3 ta usuli mavjud:

1. Parallel sim yordamida.
2. USB simi yordamida.
3. Tarmoq (RJ-45) simi yordamida.

Printerni kompyuterga ulash simlari 10-rasmda ko'rsatib o'tilgan. Odatda simlar printerdan bo'lak sotiladi.

Videoproyektor

Zamonaviy dars jarayonida turli xil chizmalar, rasmlar, slaydlar, matnlar, test savollari, tajribalar va h.k.larni ekranda o'quvchilarga kattalashtirib namoyish qilish uchun VV majmuasidan foydalanish yaxshi samara beradi (1.7-rasm). Ayniqsa, fizikaga oid tajribalarni VV majmuasida namoyish qilish o'quvchilarning bu tajribalar mohiyatini yaxshi tushunishlariga yordam beradi. Videoproyektor kompyuter sistemaa blokining VGA portiga ulanadi va ekrandan 3-5 metr masofada joylashtiriladi.



1.7-rasm.Videoproyektor

Modem



1.7-rasm. Modem

Modem (abbr. modulyator, demodulyator) (1.8-rasm). Kompyuter signallarini telefon signallariga aylantiruvchi va aksincha telefon signallarini kompyuter signallariga aylantiruvchi qurilma. Ya'ni modem telefon tarmoqlari orqali kompyuterlarni o'zaro bog'lashni

ta'minlovchi qurilmadir. Modemlar tashqi va ichki bo'ladi.

Shaxsiy kompyuterlar uchun birinchi modem 1979-yilda Hayes Microcomputer Products kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Qoshimcha qurilmalar Qoshimcha qurilmalar.

Web kamera

Veb kamera kichik hajmli tasvirlarni yoki rasmga olishga mo'ljallangan. (1.8-rasm) Veb — kamera — bu kompyuter yoki kompyuter tarmog'iga yozib olish yoki oqimlash uchun mo'ljallangan videokamera . Ular, birinchi navbatda, videotelefoniya , jonli efir va ijtimoiy tarmoqlar va xavfsizlikda qo'llaniladi . Veb-kameralar o'rnatilgan kompyuter uskunasi yoki periferik qurilmalar bo'lishi mumkin va odatda USB yoki simsiz protokollar yordamida qurilmaga ulanadi .



1.8-rasm. Veb kamera

Kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etish va axborot o'lchov birligi.

- 1 Kilobayt (Kbayt) = 1024 bayt
- 1 Megabayt (Mbayt) = 1024 Kbayt
- 1 Gigabayt (Gbayt) = 1024 Mbayt
- 1 Terabayt(Tbayt) = 1024Gbayt
- 1 Petabayt(Pbayt)= 1024 Tbayt
- 1 ekzabayt (Ebayt)=1024 Pbayt

1.2. Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalari qo'llash.


Zamonaviy elektron sport anjomlari

Sportda trenirovkalarini sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy texnik taraqqiyot texnologiyalari imkoniyatlaridan, zamon talablariga javob beradigan qurilmalar hamda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanilmoq. Sport sohasiga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan va dasturlashtiriladigan tizimlardan foydalanishda mobil telefonlar, kompyuterlar, planshet vositalarini qo'llash bugungi kunning talabiga aylangan. Bu, sport sohasida yangi shakl va usullardan foydalanish va an'anaviy usullarga qo'shimcha ravishda yangi shaklni yaratish uchun omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Avtomatlashtirilgan va dasturlashtirilgan sport jihozlari yordamida ma'lum bir sport yo'nalishi bo'yicha sportchi holati va organizmi funksional faoliyati darajasini aniqlash sport faoliyatidagi eng muhim va hal qiluvchi jarayon bo'lib, uning qanchalik to'g'ri tashkil etilganlik, hamda ulardan samarali foydalanish darajasiga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Bular qatoriga sportchining holatini aniqlash, ma'lumotlarni jamlash,

tahlil qilish, xulosalar chiqarish va shart-sharoitga bog‘liq holda kerakli tuzatishlar kiritish kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, bunday jihozlar yordamida sportchilar uchun trenirovka jarayonidagi mashqlarning eng maqbul dasturni tanlash va amalda qo‘llash, kelajakda sport istiqbol rejasini tuzish imkoniyatini beradi.

SPF V-1 kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi turli kompyuter va dasturlar bilan jihozlangan yugurish yo‘lagi LCD monitor ekranida tezlik, vaqt, masofa, yurak urishi tezligi, kaloriya sarfi yoki vaqt oralig‘ida kaloriya sarfi, harakatdagi og‘ish burchagi, harakat samarasini, harakatini jismoniy faollikka moslash (ya’ni tezlikni nazorat qilish) va boshqa turli ma’lumotlarni bevosita kuzatib borish hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi (1.9 –rasm).



1.9–rasm. SPF V-1 kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi


Kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lakcha sensor displey ekranidagi qurilmada qator afzalliklarga ega (1.9 –rasm):

- televizorga ulanishi;
- Wi-Fi orqali boshqa elektron qurilmalar (noutbuklar, planshetlar, smartfonlar) bilan bog‘lanishi;
- Bluetooth orqali noutbuk va mobil telefon bilan ulanishi;
- AUX orqali noutbuk va mobil telefondagi musiqalarni eshitish.



1.10–rasm. SPF V-1 kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi display ekrani

Oldi egilgan tutqichda tezlikni tezkor boshqarish tugmalari joylashtirilgan Maxsus manzarali videokliplarni virtual simulyatori 19 dyuymli sensor display ekrani, Wi-Fi orqali Internetning turli sahifalariga o‘tish Internetdagi multimediasi Online tizim xizmatlaridan foydalanish mumkin.



1.11-rasm. Sportchining tinch holatida “Stabiloplatforma” va kompyuter tahlili yordamida tekshirish jihozi.

Stabiloplatforma (tinch holat platformasi) sportchining tekislikdagi tana holatini boshqarish qobiliyatini mukammal baholash va tayanch reaksiyasi bo'yicha biologik tahlil qilish qurilmasi. Ushbu platforma yordamida sportchining vertikal holatda og'irlik kuch bosim markazi koordinatalarini aniqlash va o'lchash imkonini beradi. Stabilometrik qurilma platformasi bir necha tenzometrlarga asoslangan bo'lib, ulardan raqamli signallarni interfeysi orqali ulangan kompyuterdagi maxsus dasturga yuboriladi va o'lchov ma'lumotlari yordamida bosim markazi koordinatalarining o'zgarishini tahlil qiladi. Ushbu qurilmani trenirovka va tiklanish jarayonlarida ishlatiladi (1.11-rasm).



1.12-rasm. Garmin Fozerunner

Garmin Fozerunner 201 navigatori sportchining harakat faolligi davrida yurak mushaklarining qisqarish tezligi, nafas olish tezligi hamda tana haroratining umumiy ko'rsatkichini o'lchash, tanadagi holatni tahlil qilishga mo'ljallangan uskuna (1.12-rasm). Shuningdek, sportchining o'quv mashg'ulot jarayonidagi harakat yo'nalishini avtomatik ravishda qayd qiladi

Garmin Fozerunner 201 qurilma ixcham korpusli, kam energiya sarflovchi monoxrom ekran hamda suv o'tkazmaydigan korpus va qo'shimcha funksiyalarga ega.

Garmin Fozerunner 201 navigatorini afzalliklari:

- fozerunner 201 navigatorini kompyuter, smartfon va planshetlariga ulangan holatda sportchining faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega;
- sportchi joylashuvining (koordinatalar) kengligi, uzunligi va balandligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash (GPS sensorga ega);
- mashg'ulot uchun sarflangan kaloriya miqdorini kuzatish va hisoblash;
- ma'lumotlar avtomatik ravishda arxivlar va ular asosida ishning aniq ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- sportchining tezligi belgilangan darajadan past (yuqori) ligini aniqlaydi va ovozli tebranishdagi xabar beriladi.

Elliptik trenajerlar sportchining, yurak-qon tomir tizimini umumiy mustahkamlash, mushak massasini rivojlantirish va metabolizmni normallashtiruvchi kardiostimulyatorlar sport anjomlari guruhiga kiradi. Ulardagi mashg'ulotlar asosiy tana tizimlarining chidamliligini o'rgatadi, metabolizmni yaxshilaydi va nafas qisilishidan xalos bo'lishga imkon beradi. Elliptik trenajyorlar kuchni rivojlantirish mashq yuklamani to'g'ri va samarali bajarish imkoni beradi (1.13-rasm).



1.13-rasm. Elliptik jihoz

Shuningdek sportchi organizmi funksional faoliyatida aerob va anaerob chegaralar, aerob va anaerob chegaralari darajasida quvvatni va kislorod talabi, maksimal kislorod iste'molini aniqlash va baholash mumkin (1.13-rasm).



1.14-rasm. Sportchi kislorod iste'molni aniqlash va baholash qurilmasi


Kompyuterli veloergometr. Kompyuterli veloergometr qurilma yordamida sportchi mashq bajarish jarayonida tana mushaklarining maksimal quvvatidagi o'zgarishlarni qayd qiladi va natijalarni kompyuterga uzatadi. Olingan natijalarning kompyuterdagi tahlili asosida sportchining sport faoliyati uchun istiqbol rejalarini tuzish mumkin (1.15–rasm).



1.15-rasm. Kompyuterli veloergometr

Xsens MVN² inersial sensorlar suratga olish orqali biomexanik modellar va sensor sintez algoritmlari asosida inson tanasi ko'rsatkichlarini o'lchash, tezkor ma'lumotlar olish, yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil qilish imkoni beradigan tizim.

Xsens MVN tahlil tizimi har qanday joyda va har qanday sharoitda 3D kinematik va dinamik harakatlarni o'lchaydi (1.16-rasm).



1.16-rasm. Xsens MVN inersial sensorlar suratga olish tizimi

SmartSpeed qurilmalari barcha sport turlaridagi sportchilarning jismoniy sifatlarni, harakat sur'atni, harakat samarasini bitta noutbuk yoki planshet yordamida aniqlashi, tahlil qilishi va baholash orqali mashqlarga tuzatmalar kiritish hamda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi (1.17-rasm).




1.17-rasm. SmartSpeed qurilmalari.



1.18-SmartSpeed yordamida sakkiz qatorlik yo‘lakchasida sinov

Masalan, SmartSpeed yordamida sakkiz qatorlik yo‘lakchasidan iborat sport maydonida yugurish harakat mashqlarini bajarayotgan 30- 40 nafar sportchilarni bir vaqtning o‘zida yoki kun davomida minglab sportchilarni tahlilini amalga oshirish mumkin (1.18-rasm).


To‘liq avtomatlashtirilgan va dasturlashtiriladigan tizim sport trenirovkalardagi har qanday testni, masalan, maksimal yugurishlari, qisqa masofaga yugurish va boshqa testlardagi chidamlilikni nazorat qilishi mumkin. Shuningdek, jarohatlardan keyin tiklanishini nazorat qiladi (1.19-rasm).



1.19-rasm. SmartSpeed qurilmasi yordamida sakrash mashqi tahlili

SmartSpeed qurilmalardan ochiq havoda va bino ichida ham foydalanish mumkin.

Tendo Sprint System –yugurish mashqlari bo‘yicha ma’lumotlarni kompyuter yoki planshetga simsiz uzatuvchi signal qabul qiluvchisi qurilma. Qurilma sportchilarning yugurish tezligi haqida real vaqtda axborotlar taqdim etadi. Shuningdek, trenirovkalardagi mashq yuklamalarini va charchoqni nazorati orqali jarohatlarni oldini oladi. Shuningdek, Tendo Sprint System — qurilmasi kompyuter tomonidan boshqarish, o‘lchash natijalari bazasini yaratish, saqlash, tahlil qilish, ko‘rish va eksport qilish imkoni mavjud (1.20-rasm).



1.20-rasm. Tendo Sprint System –yugurish harakatlarini kompyuter, planshetda simsiz o‘lchash va tahlil qilish qurilmasi

Tendo Sport Power –sportchi bajarayotgan harakat tezligini, kuchini o‘lchash va tahlil qilish imkonini beruvchi qurilma (1.21- rasm). Qurilma mashq yuklamalarini bajarayotgan sportchi harakatlaridagi kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, baholash orqali kelajakdagi trenirovkalarni rejalashtirish mumkin.



1.21-rasm. Tendo Sport Power harakat tezligi va kuchini o‘lchash qurilmasi

Tendo Sport Power qurilmani shaxsiy kompyuterlar qulay ulash va foydalanish imkoni mavjud. Tizim kunlik mashg'ulot yuklama ko'rsatkichlarni o'zgarishlarni hisobga olgan holda avtomatik ravishda hisoblanib va grafik tasviri ko'rinishda ifodalanadi. Murabbiy grafika tasvirlar va jadvallar yordamida bir nechta ma'lumotlarni real vaqtda ko'rish orqali shunga mos ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat va tavsiyalar berish mumkin. Shuningdek, qurilma orqali olingan axborotlarni Windows operatsion tizimining Microsoft Office dasturlari majmuasiga kiruvchi Microsoft Excel dastur (*.xls, *.xlsx) formatida eksport qilinishi mumkin (1.22-rasm).



1.23-rasm. Tendo Sport Power qurilma yordamida shtangani ko'tarish mashqi tahlili

Tosh ko'tarish mashqni bajarayotgan sportchi kamari va shtanga Tendo Sport Power qurilmasiga axborot signallarni uzatuvchi sensori qulay ravishda yopishtirish mumkin (1.23-rasm).

1.3. Axborot xavfsizligi.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashni ham taqozo etayotir. O'zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib qo'shildi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Ma'lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradio efir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yuritish;

Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarining yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtirok etish;

Axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta'minlash;

davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish;

davlat axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan monitoring natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga belgilangan tartibda taqdim etish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo'layotgan tahdidlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo'yicha konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish;

qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo'yicha o'zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi

Mazkur Markazning asosiy maqsadi etib, «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog'i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, davlat organlari tizimlari va axborot resurslarida axborot xavfsizligini ta'minlash belgilangan.

Markaz xodimlari axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va to'plash bilan shug'ullanadilar, «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimi, resurslari va ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik

yechimlarni samarali qabul qilish bo'yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

“Elektron hukumat” tizimi axborot xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflarini ishlab chiqish ham Markazning maqsad-vazifalari hisoblanadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash. Axborot xavfsizligini ta'minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga quyilgan me'yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim obyektlarining himoyalanganligidir.

Login tushunchasi. Login – shaxsning, o'zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo'lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo'lmagan qayd yozuvi hisoblanadi.

Parol tushunchasi. Parol – uning egasi haqiqiylikini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfni, raqamli yoki sharfli-raqamli kod shaklidagi maxfiy so'zdan iborat.

Avtorizatsiya tushunchasi. Avtorizatsiya – . Bunda foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigan resurslarni belgilaydi.

Ro'yxatdan o'tish tartibi. Ro'yxatdan o'tish – foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlarni ishlatishga huquq berish jarayoni. Ayrim veb-saytlar foydalanuvchilarga qo'shimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga obuna bo'lish uchun ro'yxatdan o'tishni, ya'ni o'zi haqida ayrim ma'lumotlarni kiritishni (anketa to'ldirishni) hamda login va parol olishni taklif qiladilar. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng tizimda unga qayd yozuvi (account) yaratiladi va unda foydalanuvchiga tegishli axborotlar saqlanadi.

Login va parolga ega bo'lish shartlari. Biror shaxs o'zining login va paroliga ega bo'lishi uchun u birinchidan axborot kommunikatsiya tizimida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak va shundan so'ng u o'z logini va parolini o'zi hosil qilishi yoki tizim tomonidan berilgan login parolga ega bo'lishi mumkin. Login va parollar ma'lum uzunlikdagi belgilar ketma-ketligidan tashkil topadi. Login va parollarining uzunligi va qiyinligi uning qanchalik xavfsizligini ya'ni buzib bo'lmazligini ta'minlaydi.

Login va parolni buzish. Login va parolni buzish – bu buzg'unchining biror bir maqsad yo'lida axborot kommunikatsiya tizimi obyektlaridan foydalanish uchun qonuniy tarzda foydalanuvchilarga tegishli login va parollarini buzishdir. Bunda

maxsus dastur yordamida login va parollar generatsiya qilib topiladi. Login va parollarning uzunligi bu jarayonning uzoq vaqt davom etishiga yoki generatsiya qilaolmasligiga ishora bo'ladi.

Login va parolni o'g'irlash. Login va parolni o'g'irlash – bu foydalanuvchilarning mahfiy ma'lumotlari bo'lgan login va parollarga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladigan internet firibgarligining bir turidir. Bu mashhur brendlar, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, banklar va boshqa servislar nomidan elektron xatlarni ommaviy jo'natish yo'li orqali amalga oshiriladi. Xatda odatda tashqi ko'rinishi asl saytdan farq qilmaydigan saytga to'g'ri ishorat mavjud bo'ladi. Bunday saytga tashrif buyurgan foydalanuvchi firibgarga akkauntlar va bank hisob raqamlariga kira olishga ega bo'lishga imkon beruvchi muhim ma'lumotlarni bildirishi mumkin. Fishing – ijtimoiy injeneriyaning bir turi bo'lib, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan. Jumladan, ko'pchilik oddiy faktni bilishmaydi: servislar qayd yozuvingiz ma'lumotlari, parol va shu kabi ma'lumotlarni yuborishni so'rab hech qachon xat yubormaydi.

Resurslardan ruxsatsiz foydalanish va uning oqibatlari. Axborot-kommunikatsiya tizimining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hamda axborot tizimi taqdim etadigan imkoniyat mavjud bo'lgan resurslardan belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lmagan holda foydalanishni cheklash qoidalariga rioya qilmasdan foydalanish – bu resurslardan ruxsatsiz foydalanish toifasiga kiradi. Bunday foydalanish natijasida quyidagi oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

- axborotning o'g'irlanishi;
- axborotni o'zgartirish;
- axborotning yo'qotilishi;
- yolg'on axborotni kiritish;
- axborotni qalbakilashtirish va h.k.

Kompyuter virusi. Kompyuter virusi – bu o'z-o'zidan ko'payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqaluvchi, hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar yetkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi hisoblanadi. Kompyuter viruslari quyidagi xossalarga ega: o'zidan nusxa ko'chirish, axborotdan ruxsatsiz foydalanishni amalga oshirish. U o'zining nusxalarini kompyuterlarda yoki kompyuter tarmoqlarida qayta ko'paytirib va tarqatib, hamda qonuniy foydalanuvchilar uchun nomaqbul harakatlarni bajaradi. Virus, aksariyat hollarda nosozlik va buzilishlarga sabab bo'ladi va biror hodisa yuz berishi bilan, masalan, aniq kunning kelishi bilan ishga tushirilishi mumkin.

Viruslarning turlari va vazifalari. Viruslarni quyidagi asosiy alomatlari bo'yicha turkumlash mumkin:

- yashash makoni;

- operatsion tizim;
- ishlash algoritmi xususiyati.

Antiviruslar ularning turlari. Hozirgi vaqtda viruslarni yo'qotish uchun ko'pgina usullar ishlab chiqilgan va bu usullar bilan ishlaydigan dasturlarni antiviruslar deb atashadi. Antiviruslarni, qo'llanish usuliga ko'ra, quyidagilarga ajratishimiz mumkin: detektorlar, faglar, vaktsinalar, privivkalar, revizorlar.

Detektorlar — virusning signaturasi (virusga taalluqli baytlar ketma-ketligi) bo'yicha tezkor xotira va fayllarni ko'rish natijasida ma'lum viruslarni topadi va xabar beradi. Yangi viruslarni aniqlab olmasligi detektorlarning kamchiligi hisoblanadi.

Faglar — yoki doktorlar, detektorlarga xos bo'lgan ishni bajargan holda zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlaydi va faylni oldingi holatiga qaytaradi (Kaspersky Antivirus, Norton AntiVirus, Doctor Web, Panda).

Vaktsinalar — yuqoridagilardan farqli ravishda himoyalananayotgan dasturga o'rnatiladi. Natijada dastur zararlangan deb hisoblanib, virus tomonidan o'zgartirilmaydi. Faqatgina ma'lum viruslarga nisbatan vaqtincha qilinishi uning kamchiligi hisoblanadi. Shu bois ham, ushbu antivirus dasturlari keng tarqalmagan (Anti Trojan Elite, Trojan Remover, Dr.Web CureIt).

Privivka — fayllarda xuddi virus zararlagandek iz qoldiradi. Buning natijasida viruslar «privivka qilingan» faylga yopishmaydi. Viruslar zararlagan fayllarga belgi qo'yadi va keyingi safar bu faylni zararlamaydi, privivka antiviruslari esa oldindan zararlangan degan belgi qo'yib qo'yadi va shu orqali faylni zararlashdan saqlaydi.

Filtrlar — qo'riqlovchi dasturlar ko'rinishida bo'lib, rezident holatda ishlab turadi va viruslarga xos jarayonlar bajarilganda, bu haqda foydalanuvchiga xabar beradi (Outpost Security Suite, Agnitum Outpost Firewall). Filtr dasturlar kompyuter ishlash jarayonida viruslarga xos bo'lgan shubhali harakatlarni topish uchun ishlatiladi.

Bu harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- fayllar atributlarining o'zgarishi;
- disklarga doimiy manzillarda ma'lumotlarni yozish;
- diskning ishga yuklovchi sektorlariga ma'lumotlarni yozib yuborish.

Revizorlar (CRC-skaner, Monitor) — eng ishonchli himoyalovchi vosita bo'lib, diskning birinchi holatini xotirasida saqlab, undagi keyingi o'zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi (Kasperskiy Monitor).

Yangi viruslarning to'xtovsiz paydo bo'lib turishini hisobga olib, antivirus bazalarini doimiy ravishda yangilab turish lozim, undan tashqari antivirus dasturlarini yangi versiyalarini chiqishini ham kuzatib borish kerak va kompyuter (protssessor, operativ xotira, operatsion tizim)ga mos keladiganlarini aniqlab dasturni yangilab borish shart.

Bugungi kunda har bir davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni o'zining ustuvor yo'nalishi deb biladi. Davlat dasturlari yordamida raqamlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va huquqiy tartibga solish, mamlakatimizda raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinib rivojlanmoqda. O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda jarayonga moslashish sur'atini oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari.

O'zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qarorni imzoladi¹. 2023-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyot ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga yetkazish rejalashtirilgan (hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali 326 ta davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yilgan).

Qarorda 2023-yilga borib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish orqali raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2022-yilda barcha hududlarda raqamli savodxonlik o'qitish markazlari ochilishi ham e'tiborga molik hisoblanadi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-sonli Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi tasdiqlanib, 2030-yilda raqamli iqtisodiyotning YAIM dagi ulushi 30 foizni tashkil etishi va unda raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hududlar kesimida yanada batafsil yoritilgan.

2019 yilda chop etilgan UNCTADning raqamli iqtisodiyot hisobotiga ko'ra, 7 ta raqamli kompaniya (Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba va Tencent) jami global bozor kapitallashuvining 3/2 qismini tashkil qildi. Global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning qariyb 40 foizi AQSh va Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yil holatiga ko'ra raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1,6 foizni, AQShda 9,3 foizni, Xitoyda 3,8 foizni, Hindistonda 8 foizni tashkil etdi.

2025 yilga borib dunyoning raqamli iqtisodiyoti 23 trillion AQSh dollarga yetadi.. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizgacha oshadi. Kommunal, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport, moliya va boshqa sohalarda raqamli transformatsiyani rag'batlantirish uchun dunyo bo'ylab 100 milliard ulanish o'rnatiladi. Bulutli texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar soni 85%, sun'iy intellekt – 86%, raqamli katta ma'lumotlar – 80 foizni tashkil etadi.

Axborot texnologiyalari platformalarida faoliyat yurituvchi raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, bu esa bunday platformalar uchun yangi model va

texnologiyalarni yaratishni taqozo etmoqda. Bular raqamli iqtisodiyotning o'tkazuvchan (murakkab) texnologiyalari:

1. Big Data texnologiyalari;
2. Internet ashyo texnologiyalari (IoT – Internet of Things);
3. Mobil texnologiyalar;
4. Bulutli texnologiyalar (Cloud computing);
5. Virtual va to'ldirilgan texnologiyalar (VR – virtual reality) (AR – augmental reality);
6. Neyro texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI);
7. Raqamli platformalar;
8. Kvant texnologiyalar;
9. Robototexnika;
10. Blokcheyn va kriptovalyuta texnologiyalari;
11. Kraudsorsing va kraudfanding.

Iqtisodiyotning real sektoriga raqamli iqtisodiyotni joriy etish texnik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni ekspert qo'llab-quvvatlovchi markazlarni tashkil etish, shuningdek, ularni tijoratlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib, "Raqamli iqtisodiyot"ni shakllantirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, uning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, bu ta'sir barqaror, jamiyat, davlat va aholi faoliyati hamda hayotining barcha sohalariga kirib boradi.

Topshiriq

1. Har bir ishtirokchining elektron pochta-siga topshiriqlar yuboriladi.
2. Ishtirokchilar elektron pochta-sida qabul qilib olgan topshiriqlarni o'qib chiqadilar va topshiriqlarning bajarilganligi haqidagi ma'lumotni oldindan belgilangan elektron pochta-ga hisobot tarzida jo'natadilar.

Nazorat savollari

1. Axborot tushunchasi
2. Shaxsiy kompyuterlar va ularning tuzilishi
3. Tanib olish dasturlari
4. Kompyuter virusi ?
5. Login va parolga ega bo'lish shartlari?
6. Avtorizatsiya tushunchasi nima?
7. Viruslarning turlari?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
2. Сабирова Д.А., Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
3. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., "Axborot texnologiyalari", o'zDJTI, T.: 2008 y. 120 b.
4. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish", Uslubiy qo'llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019 y.-55 b.
5. Tolametov A.A., Sport metrologiyasi //o'quv qo'llanma. T.: Umid Design, 2021 y.-220b.
6. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021 y.
7. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish //o'quv qo'llanma. T.: Umid Design, 2021 y.
8. Sabirova D.A., Multimedia tizimlari va texnologiyalari.o'quv qo'llanma. — T: TDIU, 2014 y.,
9. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi. Uslubiy qo'llanma. Farg'ona 2023 y.



AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

IV AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

2-Mavzu. Internet tarmog'i xizmatlari va ulardan foydalanish. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

O'quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Amaliy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi:	1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. 2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari. 3. Internetdagi on-line tizimlar va ulardan foydalanish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Amaliy mashg'ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga internet haqida tushuncha, elektron davlat xizmatlari, davlat interaktiv xizmatlari, on-line xizmatlardan foydalanish haqida bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - mashg'ulot davomida hukumat portal vazifasi va uning qulayliklaridan unumli foydalanishni tushuntirish; - davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlaridan foydalanishda ishlash prinsiplari; - internet tarmog'idagi on line tizimlar va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish;	O'quv natijalari: Nazariy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim: 2.1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal unumli foydalanish; 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlaridan foydalanishni; 2.3. Internetdagi on-link tizimlar va ulardan foydalanish bilim ko'nikmaga ega bo'lish;
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, prezentatsiyalar.
Ta'lim shakli:	Frontal
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

2-Mavzu. Internet tarmog‘i xizmatlari va ulardan foydalanish

Reja:

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
- 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari.
- 2.3. Internetdagi online tizimlar va ulardan foydalanish.

Kalit so‘zlar: Internet va uning xizmatlari. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanish. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari. Ovozli bloknot ilovasi.

Bugungi kunda internet inson hayotining eng muhim qismlaridan biriga aylandi. Internet qiziqarli ma’lumotlar olish, ta’lim olish, biznes yuritish va ko‘plab boshqa imkoniyatlarni beradi. Tabiiyki, u suv yoki oziq-ovqat kabi muhim emas. Ammo yo‘q bo‘lib qolsa, insoniyatni bir necha asr orqaga qaytarib yuboradi. Keling, internet nima ekanligini va u bizning hayotimizda qay darajada muhimligini tahlil qilaylik.

“Internet nima?” – deb savol berilganda odamlar aniq javob berishga qiynalishadi. Ayrimlar uni aloqa vositasi deb bilsa, boshqalar ma’lumotlar bazasi yoki biznes yuritish uchun qulay tizim deb hisoblaydi. Lekin, bu tushunchaning aniq ta’rifi bor.

Oddiy so‘z bilan aytganda, internet bu dunyoning turli burchaklarida joylashgan va ma’lumot olish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallar orqali bir-biriga ulangan ko‘plab kompyuterlardir. Ya’ni, serverlar va mijozlardan iborat global kompyuter tarmog‘i.

Internet foydalanuvchilar uchun doimiy ravishda kengayib boradigan ko‘plab



imkoniyatlarni taklif etadi.

Ba’zi odamlar uchun Internet, qiziqarli va qulay dam olishni tashkil etishga xizmat qiladi. Tadbirkorlar uchun esa, global tarmoq tijorat faoliyatini amalga

oshirishning turli usullarini, shu jumladan, qidiruv tizimlarida veb-saytlarni targ'ib qilish va auditoriyani jalb qilishning boshqa usullarini onlayn tarzda taqdim etadi.

Bugungi kunda sizda onlayn loyihangizga sarmoya kiritish imkoni bor, bu esa, siz uchun barqaror daromad manbaiga aylanishi mumkin.

Internetning qirralari juda ko'p, shuning uchun, har bir foydalanuvchi o'z turmush tarzi va xarakteri asosida to'g'ri keladiganini tanlashi mumkin. Biroq, odamlarning aksariyati uchun global tarmoq faqatgina axborot olish uchun standart vosita bo'lib qolgan.

Internetga turli usullar bilan ulanishadi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.



FTTB (FTTH) – eng mashhur texnologiya, uning prinsipi xizmat ko'rsatuvchi provayder bilan bog'laydigan kommutator o'rnatishdadir. Xonadonga, yohud uyga, kompyuter yoki routerga ulanadigan sim kiritiladi. Bunday internetning maksimal tezligi 1 soniyada 1 Gbitni tashkil etadi.

xPON. Optik tolali kanal orqali ulanish eng ilg'or va zamonaviy usul hisoblanadi. Internetga ulanish qobiliyati Gigabit kanalining Triple Play xizmatlari bilan tashkil etiladi. Ulanish optik kabel orqali amalga oshiriladi.

Sun'iy yo'ldosh aloqasi. Ushbu ulanish turi birtomonlama bo'ladi, u faqat ma'lumot olish uchun ishlaydi. uzatish uchun esa odatiy aloqa kerak bo'ladi.

GPRS va 4G (va undan yuqori). Mobil Internetga talab kundan kunga oshib bormoqda. Uning yordamida odam istagan joyida internetga ulanishi mumkin. Uning tezligi va sifati mobil aloqa xizmati operatoriga bog'liq bo'ladi.

WiFi va WiMax. Simsiz tarmoqlar bo'lib, ko'p hollarda odamlar to'planadigan joylarda ishlatiladi. Hozirgi kunda o'quv muassasalari, aholini tashish transportlari, katta savdo markazlari, kafe va restoranlarda bu turda ulanish keng qo'llanilib kelinmoqda.

Internet tezligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- tanlangan tarif rejasi;
- uzatish kanali texnologiyasi;
- tarmoqning boshqa foydalanuvchilar tomonidan yuklanishi;
- saytlarning yuklanish tezligi;
- kompyuter dasturlari va ilovalarining ishlashi;
- operatsion tizim va kompyuterning sozlamalari va boshqalar.

Foydalanuvchi kompyuterlarni (mobil qurilmalar) internet tarmog'iga ulash va axborotlar almashinishni tashkil qilish bilan shug'ullanadigan vositachi tashkilot *provayder* deb ataladi.

Har bir provayder bir nechta tarif rejalarini taklif qiladi. Agar eng hamyonbop internetga qiziqayotgan bo'lsa, tarif rejalarida kirish tezligi, uzatilgan ma'lumotlarning mavjudligi yoki yo'qligi haqida bilish kerak.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.



O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat organlari, turli tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga masofaviy xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bugungi kunda mazkur markazlar tomonidan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha ariza berish, fuqaroni jamg'arib boriladigan nafaqa tizimida hisobga qo'yish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, loyiha hujjatlarini kelishish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga, yakka tartibda uy-joy qurishga (rekonstruksiya qilishga) ruxsat berish, suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsat berish kabi xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Prezidentimiz markazlar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari turini yanada ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Davlat xizmatlarining har bir turi "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga asoslanadi va vakolatli davlat organlari, tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirildi.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, uning qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi hamda "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan. Uning strategik maqsadi – elektron hukumat tizimining keyingi bosqichiga o'tish, integratsiyalashgan hukumatni rivojlantirishga ko'maklashish.

Bunda asosiy e'tibor davlat organlarining axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish hamda rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni amalga oshirish, ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash, ishlov berish va almashish tamoyilini ta'minlash, "**Elektron hukumat**" tizimi ishtirokchilarining o'zaro kelishilgan, bir-birini to'ldiruvchi va birlashtirilgan usullari va yondashuvlarini qo'llashga qaratilgan.

2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari.

Hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portalda aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish hamda joriy etish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.



my.gov.uz yagona interaktiv portalning asosiy qulayligi – foydalanuvchi uchun moslashuvchan dizaynga ega bo‘lgan interfeys hisoblanadi. Portalda foydalanishda mobil telefon yoki planshet orqali ham bir marta ro‘yxatdan o‘tib, tizimdan hech qanday qiyinchiliksiz foydalanish mumkin. Portal keng ko‘lamdagi davlat xizmatlaridan foydalanish, zarur ma‘lumotlarni qidirish, biznes masalalarini tezda hal qilish va boshqa ko‘plab imkoniyatlarni yaratilgan (3.11-rasm).

Shuningdek, my.gov.uz yagona interaktiv portalda foydalanuvchidan barcha davlat xizmatlari turi bilan tanishish uchun yagona identifikatsiya tizimidan ro‘yxatdan o‘tish talab etilmaydi.


Yagona portal maqsad va vazifalari:

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Yagona portalning asosiy vazifalari:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish.



2.1.-rasm. my.gov.uz yagona portal sahifasi ko‘rinishi

Yagona portal zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlari olishda foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan.


Yagona portal foydalanuvchilarga davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan bir tomonlama, ikki tomonlama va tranzaksion shakldagi interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Davlat xizmatlaridan foydalanishda Mobil-ID tizimi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanishda ONE-ID tizimida shaxsni tasdiqlovchi pasport ma’lumotlari asosida login va parol, elektron raqamli imzo kaliti va ID-kartalar orqali kirish mumkin.

Elektron raqamli imzo kaliti alohida flesh-kartaga ega bo‘lib, kalitning amal qilish muddati ikki yil.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji tufayli fuqarolarga elektron raqamli imzodan foydalanmagan holda barcha davlat xizmatlaridan foydalanishini osonlashtirish maqsadida bugungi kunda shaxsni identifikatsiyalashning yangi innovatsion Mobil-ID tizimi ishlab chiqildi.

Mobil-ID tizimda mobil telefon raqami orqali ro'yxatdan o'tib, barcha davlat xizmatlaridan (bundan kreditlash sohasida ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar mustasno) elektron raqamli imzosiz foydalanish imkonini beradi.





Mobil-ID tizimi — “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash bo'yicha yagona axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va shaxsning mobil telefon raqami va yuz tasviri bo'yicha identifikatsiyalashni nazarda tutilgan.

Mobil qurilmadagi kamera orqali shaxsning yuz tasviri bo'yicha tanib olish jarayoni 5 ta bosqichni o'z ichiga oladi.




2.2-rasm. Mobil qurilmadagi kamera orqali yuz tasvirini tanib olish bosqichlari.

Mobil-ID orqali ro'yxatdan o'tish uchun smartfonga MyGov mobil ilovasini yuklab olish talab etiladi.



2.3-rasm. Smartfonda MyGov mobil ilovasini yuklab olish

MyGov mobil yuklab olingandan so'ng login va parol orqali ro'yxatdan o'tiladi.



2.4-rasm. Smartfonda MyGov mobil ilovasiga kirish

Ro'yxatdan o'tgandan so'ng MyGov mobil ilovasining bosh sahifasi ochiladi.



2.5-rasm. MyGov mobil bosh sahifasi

Mobil-ID tizimi orqali identifikatsiyalangan mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yuboriladi.



2.6-rasm. MyGov mobil tizimida yuz tasvirini tanib olish

MyID orqali tasdiqlash bosilgandan so‘ng dastur shaxsning yuz tasvirini oladi, hamda tasvirini tanib olish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so‘ng davlat xizmatlari imkoniyatlaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

my.soliq.uz — Soliq majburiyatlarini bajarishning ishonchli va qulay usuli




my.soliq.uz

Davlat soliq xizmati organlarining yangi “Elektron soliq xizmatlari” portali ishga tushirildi. «Elektron davlat xizmatlar» portali «Soliq» axborot tizimlari kompleksini soliq solish sohasida interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish uchun integratsiya qilish loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi –davlat soliq xizmati organlari tomonidan aholi va biznesga ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlarini optimallashtirish, ularning sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va natijada soliq to‘lovchilarning xizmatlardan foydalanish darajasini oshirishdan iborat.

Qisqa davr ichida Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlarni qayta ishlash markazi asosida alohida infratuzilma, ma’lumotlar bazasi va ularni boshqarishda qo‘llaniladigan dasturiy mahsulotlar yaratildi. Elektron xizmatlarni boshqarish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, foydalanish statistikasini shakllantirish hamda vertikal nazorat olish borish uchun maxsus axborot tizimlari ishlab chiqildi (2.7-rasm).



2.7-rasm. My.soliq.uz portalining bosh sahifasini ko‘rinishi

Portalning bosh sahifasi ochilganda soliq organlarining xodimi kirib keladi va foydalanuvchilarga yangi portalning imkoniyatlari to‘g‘risida qisqacha tushuntirishlar beradi.

Portalning yana bir qulayligi — bu kerakli xizmatlarni tez va oson qidirish mumkinligi. Bunda «Elektron hukumat to‘g‘risidagi» Qonun talablaridan kelib chiqib, davlat soliq xizmati organlarining barcha elektron davlat xizmatlari — interaktiv va axborot davlat xizmatlariga saralangan. Bundan tashqari ularni qidirishni yanada soddalashtirish maqsadida, murojaatlarni va hisobotlarni yuborish, ro‘yxatga olish, soliqlarni hisoblash va ma‘lumotnomalar olish kabi xizmat yo‘nalishlariga ajratilgan.

2.3. Internetdagi online tizimlar va ulardan foydalanish.



Internetning asosiy xizmat turlaridan biri bu Elektron pochta. Elektron pochta (e-mail- electronic mail) oddiy pochta vazifasini bajaradi. Elektron pochta maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy faylni tezda (bir necha soniyalarda) jo‘natish va qabul qilib olish mumkin. Uning asosiy afzalligi “***birdan ko‘pga***” prinsipida ishlashi. Elektron xatlar jo‘natilgan vaqtda manzilga boradi va yuborilgan pochta qutisida saqlanadi.

Bundan tashqari ma'lum talablar mavjud, ya'ni bunda xat yuborayotgan foydalanuvchi va qabul qilayotgan foydalanuvchi ham Internet tarmog'iga ulangan kompyuterga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.



2.8.-rasm. Elektron xabar uzatish ketma-ketligi

Elektron pochta manzili umumiy holda quyidagicha ko'rinishga



ega: name@domain2.domain1 Elektron pochta manzili quyidagi qismlardan tashkil topgan: pochta qutisi nomi, @ belgisi va pochta serveri manzilidan iborat bo'ladi.




O'zbekiston Respublikasi ham o'z milliy elektron pochtasiga ega. **uMail.uz** elektron pochta xizmati. ID.UZ tizimida ro'yxatdan o'tgan har bir foydalanuvchi uMail.uz tizimida pochta qutisiga ega bo'lishi mumkin.

Asosiy afzalliklari:

- Xatlar O'zbekistonda joylashgan serverlar orqali almashishi ma'lumotlar almashish xavfsizligini ta'minlaydi;
- xalqaro trafikdan foydalanmaslik;


- pochtaga keluvchi xatlar to'g'risida ma'lumotni SMS-xabar orqali olish mumkinligi;
- ID.UZ tizimi bilan integratsiyasi Elektron hukumat axborot tizimlarida ishlatish imkonini beradi.

uMail.uz ning bosh sahifasi quyidagi 2.9-rasmda berilgan.



2.9-rasm. uMail.uz elektron pochta bosh sahifasi

Yangi elektron pochta yaratish bo'yicha to'liq ma'lumot uMail.uz bosh sahifasining “**Qo'llanmalar**” bo'limida berilgan.

va  **E-XAT muhofazalangan elektron pochta tizimi.** Internet tarmog'i orqali uzatishda axborotni muhofaza qilish uchun, masalan, “E-XAT” muhofazalangan elektron pochta tizimi asosida axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalari elektron raqamli imzo vositalaridan (milliy kriptovayder)dan foydalanadi.

Muhofaza qilish vositalaridan foydalanish hisobiga E-XAT tizimi, axborot xavfsizligining quyidagi talablariga javob beradi:

- **identifikatsiya qilish** – E-XAT tizimi foydalanuvchisining elektron raqamli imzosiga asoslanib, uning haqiqiyliги o'rnatiladi;
- **konfidensialligi** – elektron xabarlarni shifrlash yo'li bilan ularni muhofaza qilish;

- har bir elektron xabarda elektron raqamli imzoning tegishlilikini tekshirish asosida elektron xabar jo‘natuvchisini autentifikatsiya qilish;
- elektron xabarlarining butunligi – elektron xabardagi axborotning buzilmaganligini tekshirish.

E-XAT tizimi tizimda ishlash uchun uch tildan foydalanadi: o‘zbek (lotin va kirill yozuvlari asosidagi), rus (kirill yozuvi asosidagi) va ingliz (lotin yozuvi asosidagi).


E-XAT tizimida ishlash uchun har bir foydalanuvchi elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish markazi tomonidan berilgan yopiq kalit va ochiq kalit sertifikatiga ega bo‘lishi kerak.

Internetning eng ko‘p tarqalgan pochta xizmatini ko‘rsatuvchi **mail.ru** pochta-axborot portali bilan tanishamiz.



Mail.ru da yangi elektron pochta yaratish.

Birinchi navbatda ixtiyoriy brauzerning manzil maydonchasiga mail.ru adresini yozamiz. Natijada 2.10.-rasmida ko‘rsatilgan sahifa ochiladi.



2.10.-rasm. Mail.ru elektron pochta bosh sahifasi

Bu sahifadan “Создать почта” (Pochta yaratish) so‘zining ustiga bosilganda “Создание почтового ящика” (Pochta qutisini yarating) oyna ochiladi (2.11-rasm).

2.11.-rasm. mail.ru elektron pochtaida ro‘yxatdan o‘tish sahifasi

“Создание почтового ящика” (Pochta qutisini yarating) oynada yangi mijoz o‘zi haqidagi so‘ralgan ma’lumotlarni kiritadi (2.12.-rasm), ya’ni

1. Ism
2. Familiya
3. Tug‘ilgan sana (kun, oy, yil)
4. Jinsi (erkak yoki ayol)
5. Tizimdan foydalanish uchun ism (*login*). Agar tizimda bunday ism mavjud bo‘lsa ismingiz oldiga yoki oxiriga ixtiyoriy belgilar, sonlar qo‘shishingiz mumkin.
6. Elektron pochta tizimiga kirish uchun parol. Yaratilayotgan pochta xavfsizligi uchun ism, familiya, tug‘ilgan sanalardan foydalanilmagan ma’qul (kiritilgan parolni saqlab qo‘yish lozim).
7. Elektron pochta shaxsiy mobil telefon raqami orqali yoki qo‘shimcha elektron pochta orqali ham ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin.
8. Anketa to‘ldiriladi va “Создать” (Yaratish) tugmasi bosilgan keyingi bosqichga o‘tiladi.

Обычная почта
Детская почта

Создание почтового ящика

Имя
Фамилия

Sevara
Adasheva

Дата рождения

19
Июль
1970

Пол

☐ Мужской
☒ Женский

Имя ящика

sevara1970
@bk.ru

Пароль
Сгенерировать надёжный пароль

Sport2020

Надёжный пароль

Резервная почта
Указать номер телефона

abdujalil70@bk.ru

Создать

Нажимая «Создать», вы принимаете следующие [Условия использования](#)

2.12.-rasm. mail.ru ma'lumotlarni kiritish

Keyingi bosqichda tasodifiy tarzda almashib turadigan harflar yoki sonlardan iborat birikma (*kapcha*) ko'rsatilgan joyga kiritiladi va “Продолжить” (Davom etish) tugmasi bosiladi (2.13-rasm).

Создание почтового ящика

Укажите код с картинки

Код

←


MM2UXM

Не вижу код

Продолжить
Назад


2.13-rasm. Sonlardan iborat birikma (*kapcha*) kiritish oynasi

Ro'yxatdan o'tgandan so'ng shaxsiy kabinetga kirish uchun mos maydonlarga login va parol kiritiladi va **“Войти”** (Kirish) tugmachasi bosiladi (2.14.-rasm).



2.14-rasm. Mail.ru elektron pochtasida login va parolni kiritish


“Войти” (Kirish) tugmasini bosilgandan so'ng 2.15.-rasmда ko'rsatilgan yangi sahifa ochiladi.



2.15.-rasm. Mail.ru pochtasining sahifa ko'rinishi


Ovozli bloknот ilovasi.

Ovozli bloknот ilovasidan foydalanish uchun brauzerning manzil maydonchasiga <https://speechpad.ru/> adres sahifasiga yozish orqali sahifasiga o'tish kerak. Xizmatdan to'liq foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish lozim.



2.16-rasm. Ovozli bloknот xizmat ilovasi


Registratsiya tugmasi bosiladi.



2.17-rasm. Ovozli bloknот xizmat ro'yxatdan o'tish sahifasi

Ochilgan sahifadagi shartlar bilan tanishib chiqib, elektron pochta manzilingiz, tizim xizmatida foydalanish uchun login, parolni va rasmdagi raqamlarni kiritib OK tugmasi bosiladi. Hamda kiritilgan elektron pochta manziliga tizimdan foydalanish uchun parol yuboriladi. Pochtaga yuborilgan parol va ro'yxatdan o'tish login orqali tizimga kirishi, hamda ovozli bloknot xizmatining barcha imkoniyatlaridan



foydalanish mumkin bo'ladi. Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi audio va video ovozli fayllarni matn holatiga o'tkazishi mumkin.




2.18-rasm. Ovozli bloknot xizmat ro'yxatidan o'tgandan so'ng sahifa ilovasi

+ Транскрибацию Audio va video ovozli fayllarni matn holatiga o'tkazishi uchun bo'limi bosiladi, u holda rasmdagi sahifa ochiladi

Shundan so'ng Youtube, HTML5 video, HTML5 audio fayllardagi ovozlarni matn holatiga o'tkazish mumkin bo'ladi.



2.19-rasm. Audio va video fayllardagi ovozli axborotlarni kiritish



2.20-рasm. Ovozli axborotlarni kiritish sahifasi

Ovozli bloknot xizmat ilovasida kerakli til tanladi va yozib olish tugmasi bosiladi hamda matn o‘qiladi. o‘qilayotgan matnda nutq tiniq aniq bo‘lishi lozim. Kerakli matn tugatilgandan so‘ng yozuvni tugatish tugmasi bosiladi.




O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi 2017-yil 13-yanvardagi PQ-3271-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida elektron kutubxona (lib.sportedu.uz) tizimi ishlab chiqilgan.



Internetning “<http://lib.sportedu.uz>” manzilda “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” elektron kutubxonasi mavjud. Elektron kutubxona jismoniy tarbiya va sportga oid “Darsliklar”, “O‘quv qo‘llanmalar”, “O‘quv uslubiy qo‘llanmalar”, o‘quv modullar bo‘yicha “O‘quv uslubiy majmualar”, “Ma’ruza matn

“Video darslar” va “Elektron darslik”larni ko‘rish yoki yuklab olish imkoniyati yaratilgan (2.21-rasm).



2.21-rasm. Institutning elektron kutubxona (lib.sportedu.uz) tizimi .

Nazorat savollari

1. Hukumat portalining vazifasi nimalardan iborat?
2. Hukumat portalining manzili qaysi?
3. My.gov.uz portaliga qaysi tizim orqali kirish mumkin?
4. Mobil.Id tizimini vazifasi nima?
5. E xat qanday dastur?
6. Ovozli bloknotning vazifasi nima?

Amaliy topshiriqlar:

1. Mobil.Id tizimidan ro'yxatdan o'ting
2. Mobil.Id tizimidan foydalanib davlat xizmatlari portalidan yashash joyidan ma'lumotnoma yuklab oling.
3. Ovozli bloknot orqali ma'lumotingizni kiriting.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
2. Сабирова Д.А., Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
3. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., “Axborot texnologiyalari”, o‘zDJTI, T.: 2008 y. 120 b.
4. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish”, Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019 y.-55 b.
5. Tolametov A.A., Sport metrologiyasi //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.-220b.
6. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021 y.
7. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.
8. Sabirova D.A., Multimedia tizimlari va texnologiyalari.o‘quv qo‘llanma. — T: TDIU, 2014 y.,
9. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi. Uslubiy qo‘llanma. Farg‘ona 2023 y.

3-Mavzu. Ziyonet ta'lim portali. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

O'quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Amaliy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi:	3.1. Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlari. 3.2. Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish. 3.3. "uTube.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish. 3.4. "Fikr.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Amaliy mashg'ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga ziyonet haqida tushuncha, ziyonet ta'lim portal xizmatlari, utube.uz portalida foydalanish, fikr.uz xizmatlardan foydalanish haqida bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - mashg'ulot davomida ziyonet ta'lim portali vazifasi va uning qulayliklaridan unumli foydalanishni tushuntirish; - Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish foydalanishda ishlash prinsiplari tushuntirish; - "uTube.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish tartibi va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish; - "Fikr.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish tartibi va ulardan samarali foydalanishni o'rgatish;	O'quv natijalari: Nazariy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlarini o'rganish. 2. Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish bilim ko'nikmaga ega bo'lishi; 3. "uTube.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish tartibi haqida umumiy ma'lumotlar; 4. "Fikr.uz"da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish usullarini.
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, taqdimotlar.
Ta'lim shakli:	Frontal
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

3-Mavzu. Ziyonet ta'lim portali.

Reja:

- 3.1. Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlari.
- 3.2. Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish.
- 3.3. “uTube.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.
- 3.4. “Fikr.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.

Kalit soʻzlar: Ziyonet portalining resurslari: “Audiokitoblar”, “Kutubxona”, “Ta’limiy muassasalar”, “Usport.uz”- sportga oid yangiliklar sayti. Ziyonet ta’lim portali doirasida yaratilgan loyihalari “uTube.uz”- ta’limiy video portali. “Fikr.uz” — shaxsiy va jamoaviy bloglar sayti.

3.1. Ziyonet ta'lim portali asosiy maqsadi va imkoniyatlari.

Ziyonet jamoat axborot ta'lim tarmog'i O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentyabrdagi PQ-191- sonli “ O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan.

Ziyonet tarmog'ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lamli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat.

Ziyonet ta'lim portali – o'quvchi yoshlar, talabalar, murabbiylar, shuningdek barcha portal foydalanuvchilari uchun kerakli axborotlarni jamlash bilan bir qatorda, ularga axborot texnologiyalari sohasidagi kerakli ma'lumotlarni berish, o'zaro muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib beradi.



3.1-rasm. Ziyonet ta'lim portali bosh sahifasi

Portalda quyidagi bo'limlar mavjud: "Saytlar reyestri", "Xorijiy tillar", "Audikitoblar", "Kutubxona", "Savol-javoblar", "O'yinlar", "Ta'lim muassasalari", "Abiturient", "Saytlar" 3.1-rasm. Ziyonet ta'lim portali bosh sahifasi

Ziyonet ta'lim portalida:

- uMail.uz
- Fikr.uz
- Tanlov.uz
- uTube.uz
- id.uz
- uSport.uz
- www.uz
- Chak-chak.uz loyihalari mavjud.

Foydalanuvchilar ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga Ziyonet portali o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

- uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satellitlarni yaratish;
- guruhlar yaratish, yaratilgan guruhlarda mavzular yaratish, guruhlarga qatnashchilarni taklif qilish va boshqa foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan mavzularda ishtirok etish;
- "Savollar va javoblar" bo'limida o'z savollarini berish va boshqa foydalanuvchilar bergan savollarga javob berish;
- "O'yinlar" bo'limining foydalanuvchilari reytingida ishtirok etish;
- Ziyonet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish va h.k.

Ziyonet tarmog'iga ulanish

Hukumat qarorlariga muvofiq barcha ta'lim muassasalari (ulanish obyektlari) Ziyonet axborot ta'lim tarmog'i negizida birlashishlari kerak. 2013 yil 10 iyul sanasidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ №198-son "Ziyonet axborot ta'lim tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan ta'lim muassasalarini Ziyonet tarmog'i resurslari ulash "O'zbektelekom" AK tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarining tarmoqqa ulanishlariga va moliyaviy masalalarning hal etilishiga OO'MTV, O'MKTM, XTV, «Kamolot» YOIH mas'ul hisoblanadilar. Ta'lim muassasalarini tarmoqqa ulanish masalalariga oid barcha savollar bilan mas'ul vazirliklar va boshqarmalarga, shuningdek Ziyonet tarmog'i provayderiga murojaat etishingizni so'raymiz. Ziyonet ta'lim tarmog'iga ulanuvchi obyekt provayder tomonidan quyidagi kafolatlangan xizmatlarni oladi:

Ziyonet tarmog'iga ta'lim muassasalarini ulanishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

ZiyoNET portalining xizmatlaridan foydalanish qoidalar

1. Hujjat mazmuni

1. Ushbu qoidalar ZiyoNET portalidan foydalanish boshlangan vaqtdan kuchga kiradi va belgilanmagan muddat amal qiladi;
2. Qoidalar doirasida ko'rsatilayotgan xizmatlarning bepul ekanligini hisobga olgan holda mualliflik huquqlarini himoya qilishni belgilash ularga nisbatan qo'llanilmaydi.

2. Foydalanuvchilar

1. ZiyoNET portalining foydalanuvchilari quyidagi toifalarga ajratiladi:
 - oddiy foydalanuvchilar;
 - ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan holda avtorizatsiya bo'lgan foydalanuvchilar.
2. ZiyoNET portalining oddiy foydalanuvchilari faqatgina ma'lumotlarni ko'rish imkoniyatiga egalar;
3. ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan holda avtorizatsiya bo'lgan foydalanuvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega:
 - O'zi haqidagi ma'lumotlarni to'ldirish, do'stlikni taklif qilish va qabul qilish;
 - Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satellitlarni yaratish;
 - O'z qiziqishlariga ko'ra guruhlar yaratish, guruhlarda muloqot olib borish, media materiallar yuklash va boshqalar yuklagan fayllarga izoh qoldirish;
 - "Savollar va javoblar" bo'limida o'z savollarini berish va boshqa foydalanuvchilar bergan savollarga javob berish;
 - "O'yinlar" bo'limining foydalanuvchilari reytingida ishtirok etish;
 - ZiyoNET axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish va h.k.

2.2 Ziyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish.

sport.uz — sportga oid yangiliklar sayti. Ushbu saytda “Turnir jadvali”, “Yangiliklar”, “Sport tashkilotlari”, “Sport turlari”, “ O'zbekiston iftixorlari” bo'limlari mavjud (3.2-rasm). Ularning vazifasi quyidagicha:



3.2-rasm. Usport portalining bosh sahifasi

Turnir jadvali shakllantirish bo'yicha platforma – turnir va sport musobaqalari tashkilotlari uchun qulay onlayn vosita hisoblanadi. Shaxsiy sport turniringizni yarating va natijalarni to'ldiring. Tizim esa avtomat tarzda jamoalarni joylarga taqsimlaydi va

ochkolarni hisoblaydi. Bundan tashqari, agar siz o'z veb-saytingizga ega bo'lsangiz, bizning maxsus vidjetimizdan foydalangan holda avtomat tarzda ochkolarni hisoblaydigan turnir jadvalidan foydalanishingiz mumkin.

Yangiliklar - O'zbekiston sportiga oid eng so'ngi yangiliklari mavjud.

Sport tashkilotlari - yurtimizda faoliyat olib borayotgan professional va noprofessional sport tashkilotlari haqida umumiy ma'lumotlar mavjud.


Sport turlari — bu yerda yurtimizda mavjud bo'lgan sport turlari ro'yxati ularning faoliyat haqida umumiy ma'lumot olishingiz mumkin.

O'zbekiston iftixorlari - ushbu bo'limda xalqaro musobaqalarda o'z iqtidorini namoyish eta olgan sportchilarimiz haqida umumiy ma'lumot olishimiz mumkin.

3.3 “uTube.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.

uTube.uz – bu ochiq ta'limiy videoportal. uTube.uz portalida ko'plab video ma'ruzalar va video darsliklar, turli yo'nalishlar bo'yicha seminar hamda intervyular to'plangan. Biz ta'lim olishning yangi shakllarini (masofali, asinxron, uzluksiz) joriy qilinishini ta'minlaymiz (3.3-rasm).

Barcha materiallar on-line ko'rish uchun mavjud. Shuningdek, portaldan materiallarni ko'chirib olish imkoniyati mavjud. Ushbu portalga ma'lumotlarni qo'shish imkoniyati ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar uchun mavjud.



3.3 rasm. Utube uz saytining bosh sahifasi interfeysi.

Ushbu sayt quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:
videomateriallarni on-line ko'rish;
videomateriallarni joylashtirish;
videomateriallarni ko'chirib olish;

foydalanuvchi videomaterialiga havolani joylashtirish.

1. Video qanday qo'shiladi

1.1. Videoni qanday qo'shsa bo'ladi?

Videoni saytga qo'shish uchun foydalanuvchi saytda avtorizasiyadan o'tib, «Videoni yuklash» tugmasini bosishi kerak.

Videoni qo'shish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich – yuklanayotgan videoning nomi (sarlavha) va tavsifini kiriting, tegishli bo'limni tanlang va qidiruv sharoiti mavjud bo'lishi uchun muhim so'zlarni kiriting.

Yuklanayotgan video uchun qo'shimcha parametrlarni qo'shish imkoniyati mavjud bo'ladi: Videongizni hamma ko'rishiga ruxsat berish yoki faqat siz va do'stlaringizgina ko'rishi mumkin bo'lgan yopiq holatini tanlash.

Barcha ma'lumotlarni kiritgandan so'ng «Keyingi qadam» tugmasini bosish lozim.

Ikkinchi bosqich – yuklash uchun kerakli videoni tanlang va «Yuklash» tugmasini bosing. Agar faylning hajmi 1000 Mb dan ortiq bo'lmasa, u holda sizda yuklash, so'ng videoni konvertatsiya qilish jarayoni namoyish etiladi. Keyin sizga videoni saqlash taklif etiladi. Video saqlagandan so'ng yuklangan faylni ko'rish imkoniyatini beruvchi sahifa ochiladi.

1.2. Yuklanayotgan videoning maksimal xajmi qanday?

Yuklanayotgan videoning maksimal xajmi 1000 Mb dan ortishi kerak emas.

1.3. Yuklangan video saytda qachon paydo bo'ladi?

Yuklangan fayl moderatorlar tomonidan sayt talablariga muvofiqligi bo'yicha tekshiriladi. Bitta videomaterialni ko'rib chiqish muddati ish kuni davomida ko'pi bilan ikki soatni (dushanba kunidan juma kunigacha 09-00 dan 17-30 gacha) tashkil qiladi. Ish kunining soat 17-30 dan keyin yuklangan materiallar, keyingi ish kunining soat 11-00 gacha ko'rib chiqiladi. Ish kuni bo'lmagan kunlarda yuklangan materiallar, keyingi ish kunining kunduzgi soat 12-00 gacha ko'rib chiqiladi.

1.4. Saytga qaysi video formatlarini yuklash mumkin?

Foydalanuvchilar saytga quyidagi formatdagi videolarni yuklashlari mumkin: avi, webm, mp4, mpeg, movie, mov, mv i mkv.

1.5. Men video yukladim, ammo u saytda paydo bo'lmadi. Nimaga?

Yuklangan video sayt moderatorlari tomonidan tekshiriladi va video o'quv-ta'limiy yoki madaniy-ma'rifiy mazmunida bo'lib, saytning Foydalanuvchi kelishuvi qoidalariga mos kelishi shart.

2. Video qanday ko'chiriladi

Videoni ko'chirib olish uchun foydalanuvchi qiziqtirgan videoni tanlab, «Ko'chirish» tugmasini bosishi yetarlicha. uTube.uz saytidagi barcha videolarni onlayn qo'rish va yuklab olish bepul ravishda taqdim etiladi.

3. Video qanday o‘chiriladi

3.1. Videoni qanday o‘chirish mumkin?

o‘z videongizni o‘chirish uchun saytda avtorizatsiyadan o‘tish lozim, keyin esa o‘z profilingizga kirib, «Mening video» sahifasiga o‘tishingiz lozim. Ushbu sahifada yuklangan videoni o‘chirish va tahrirlash funksiyalari mavjud.

3.2. Video faylim saytdan o‘chirildi. Nimaga?

Videolar faqat ushbu Foydalanuvchi kelishuvi bandlarida ko‘rsatilgan qoidalarga mos kelmagan taqdirda moderatorlar tomonidan o‘chirilishi mumkin.

4. Video qanday topiladi

Kerakli videoni topish uchun qidiruv tizimidan foydalanish mumkin. Buning uchun qidirilayotgan videoning nomi yoki muhim so‘zlarini kiritib, «Enter» ni bosish lozim.

5. Yangi guruhni qo‘shish

5.1. Yangi guruhni qanday qo‘shish mumkin?


Yangi guruhni qo‘shish uchun saytda avtorizatsiyadan o‘tgach, «Guruhlar» bo‘limiga kirib, «Guruh yaratish» tugmasi bosiladi. Ochilgan sahifadagi maxsus shaklda yangi guruh to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotlarni to‘ldirish, aynan guruhning bosh rasmini tanlash, guruhni nomlash, unga tavsif berish, shuningdek, guruh kategoriyasi, turini (barcha ko‘rishi uchun ochiq yoki siz va do‘stlaringiz ko‘rishi mumkin bo‘lgan yopiq holat) tanlab, «Guruh yaratish» tugmasini bosish kerak.

5.2. Guruhga qanday qilib video joylashtirish mumkin?

Guruhga videolavha qo‘shish uchun avvalambor unga a‘zo bo‘lish kerak. Buning uchun siz «Guruhlar» bo‘limiga kirib, tegishli guruhni tanlashingiz va nomiga bosib turib, «Guruhga a‘zo bo‘lish» tugmasini bosasiz. Guruh a‘zosi bo‘lganingizdan so‘ng siz unga o‘z videolavhalaringizni joylashtirishingiz mumkin.

3.4. “Fikr.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.

Fikr.uz sayti Ziyonet axborot ta’lim tarmog’i doirasida tuzilgan bo‘lib, foydalanuvchilar unda mualliflik maqolalarini chop etishlari va boshqa foydalanuvchilar bilan birga muhokama qiladilar.



3.4-rasm Fikr.uz blogining bosh sahifasi

Maqolalar mavzu va mazmun jihatidan ta’lim, fan, madaniyat, yuqori texnologiyalar va biznesga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Fikr.uz saytining tuzilishi undan foydalanuvchi insonlarning ijodiy hamkorlikda saytni kerakli axborot bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgandir. Sayt foydalanuvchilari maqolalarni shaxsiy va jamoat bloglarida chop etishlari, so‘rovnoma o‘tkazishlari hamda o‘zga foydalanuvchilar bilan muloqot o‘rnatishlari mumkin.

Fikr.uz — bu uyushma, asosiy vazifasini umumiy qiziqishlar bilan birlashgan va reyting tizimi orqali saytning barcha foydalanuvchilarning faoliyatiga asosiy ta’sir ko‘rsatadigan odamlar guruhi bajaradi.

Fikr.uzning maqsadi — foydalanuvchiga IT, ta’lim, madaniyat, ilm-fan va boshqa sohadagi mashhur bo‘lgan shaxslar bilan, hamda bir qator zaruriy-muhim savollarni bajarishda mas’ul bo‘lgan davlat va ijtimoiy tashkilotlar vakillari bilan muomala qilishi uchun sifatli kontentga ega bo‘lgan resurs yaratish.

1. Ro‘yxatdan o‘tish

1.1. Saytda qanday qilib ro‘yxatdan o‘tiladi?

Saytda ro‘yxatdan o‘tish ID.UZ yagona avtorizatsiya tizimida o‘tiladi. Tizimda ro‘yxatdan o‘tish qoidalari bo‘yicha batafsil ma’lumot www.id.uz saytida mavjud. Fikr.uz saytining barcha imkoniyatlaridan faqatgina ID.UZ tizimidan ro‘yxatdan

o'tgan foydalanuvchigina foydalanishi mumkin. Qolgan barcha sayt foydalanuvchilari portaldagi ma'lumotlarni ko'rib o'qiy oladilar.

1.2. Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchining qanday imkoniyatlari bor?

Fikr.uz saytidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi reyting ko'rsatkichiga ko'ra quyidagi imkoniyatlarga ega: • foydalanuvchining reyting ko'rsatkichi ≥ 2 ga teng bo'lsa jamoat blogini tuzish; • reyting ko'rsatkichi ≥ -10 ga teng bo'lsa, maqolalarga izoh qoldirish; • reyting ko'rsatkichi ≥ -3 ga teng bo'lsa, izohlarga baho berish; • reyting ko'rsatkichi ≥ -5 ga teng bo'lsa, bloglarga ovoz berish; • reyting ko'rsatkichi ≥ -7 ga teng bo'lsa, maqolalarga ovoz berish; • reyting ko'rsatkichi ≥ -1 ga teng bo'lsa o'zga sayt foydalanuvchisiga ovoz berish mavqeyiga ega

Nazorat savollari

1. Ziyonet nima uchun kerak?
2. Ziyonet nechta bo'limdan iborat?
3. Utube. Uz vazifasi nima?
4. Fikr.iz saytining vazifasi nima?
5. Usport.uz qanday sayt?

Amaliy topshiriqlar.

1. Ziyonet ta'lim portalidan ro'yxatidan o'ting..
2. Fikr.uz blogidan o'z maqolangizni kiriting.
3. Utube.uz saytiga shaxsiy videoizni joylang.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi o‘RQ -637-sonli Qonuni..
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
4. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
5. Сабирова Д.А., Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
6. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., “Axborot texnologiyalari”,o‘zDJTI, T.: 2008 y. 120 b.
7. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish”, Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019 y.-55 b.
8. Tolametov A.A., Sport metrologiyasi //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.-220b.
9. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021 y.
10. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.
11. Sabirova D.A., Multimedia tizimlari va texnologiyalari.o‘quv qo‘llanma. — T: TDIU, 2014 y.,
12. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi. Uslubiy qo‘llanma. Farg‘ona 2023 y.

4-Mavzu. Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

O'quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Amaliy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi:	4.1.Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish. 4.2.Jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Amaliy mashg'ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va imkoniyatlarini haqida bilimlarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - mashg'ulot davomida kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini unumli foydalanishni tushuntirish; - jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini tushuntirish;	O'quv natijalari: Nazariy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. .Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatishning asosiy maqsadi va imkoniyatlarini o'rganish. 2. Jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari haqida bilim ko'nikmaga ega bo'lishi;
Ta'lim metodlari:	Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari:	Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, taqdimotlar.
Ta'lim shakli:	Frontal
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Nazorat savollari.

4-Mavzu. Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish.

4.1. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.

4.2. Jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari.

Kalit so'zlar: Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.

Ushbu mavzuni o'rgatishdan maqsad; kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish amallarini o'rgatishdan iborat.

Vazifamiz internet tarmoqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanib, interaktiv, On-line darslarni o'tishga tayyor jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash.

4.1. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.

Qidiruv tizim — mavjud bo'lgan ma'lumotlarning keng to'plamida qidirish orqali foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni tezda olish imkoniyatini beruvchi algoritmlar va ularni amalga oshiradigan kompyuter dasturlari to'plami. Qidiruv tizimlarning eng mashhur usullaridan biri bu WWWda matnli yoki grafik ma'lumotlarni topish uchun veb-xizmatlar. Shuningdek, FTP-serverlardagi fayllarni, Internet-do'konlarda mahsulotlarni va yangiliklar guruhlarida ma'lumot qidiradigan tizimlar mavjud.

Qidiruv tizimidan foydalanib ma'lumot qidirish uchun foydalanuvchi qidiruv so'rovini shakllantiradi. Qidiruv tizimning vazifasi — ko'rsatilgan kalit so'zlarni yoki kalit so'zlar bilan qandaydir bog'liq bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni topishdir. Bunda qidiruv tizimi qidiruv natijalari sahifasini yaratadi. Bunday qidiruv natijalari turli xil natijalarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan: veb-sahifalar, rasmlar, audio fayllar. Ba'zi qidiruv tizimlari, shuningdek, Internetdagi mos ma'lumotlar bazalari va manbalar kataloglaridan ma'lumot olishadi. Kerakli ma'lumotni topish uchun sizga kerakli ma'lumotlarni tezda topishga imkon beradigan va qidirishingizning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan zamonaviy qidiruv tizimlaridan foydalanish eng qulaydir. Ushbu mashinalar bilan ishlashda kerakli ma'lumotlarni eng aniq aks ettiradigan kalit so'zlarni o'rnatish yoki qidiruv maydonini takomillashtirish uchun kalit so'zlardan murakkabroq so'rov tuzish kifoya. Qidiruv

so‘rovingizni kiritgandan so‘ng, siz Internetdagi hujjatlarga havolalar ro‘yxatini olasiz, odatda veb-sahifalar yoki shunchaki ko‘rsatilgan kalit so‘zlarni o‘z ichiga olgan sahifalar deb nomlanadi. Odatda, havolalar topilgan hujjatning matn qismlari bilan to‘ldiriladi, bu ko‘pincha topilgan sahifaning mavzusini darhol aniqlashga yordam beradi. Havolani bosish orqali siz tanlangan hujjatga o‘tishingiz mumkin.

Hozirgi kunda eng ko‘p foydalaniladigan qidiruv tizimlari quyidagilar:

- Google
- Bing
- Yandex
- DuckDuckGo
- Boardreader
- Dogpile
- Creative Commons Search
- Giphy
- Quora
- Vimeo
- WolframAlpha
- StartPage
- Ask.com
- SlideShare


Internet tarmog‘i shunday bir muhitki u o‘zida turli ko‘rinishdagi va turli tillardagi ko‘plab axborotlarni jamlagan. Internet tarmog‘ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so‘zdan tashkil topgan so‘rovlardan foydalanadi. Internet tarmog‘ida ma‘lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so‘zlar va jumlar bo‘yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma‘lumotga doir so‘z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi.

Har bir foydalanuvchiga Internet tarmog‘i orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni oson va tez qidirib topishi uchun axborotning parametrlari bo‘yicha qidirish taklif qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Ma‘lumotlarni uning tili bo‘yicha qidiruv;
- Ma‘lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo‘yicha qidiruv;
- Ma‘lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma‘lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma‘lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma‘lumotlarni xavfsiz qidiruv.


Internet tarmog'ida grafik va matnli ma'lumotlarning ko'plab turlari uchraydi, ya'ni: matn muharirlari, elektron jadval ichidagi matnlar, chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Matn ko'rinishidagi axborotlarni qidirishda tili, joylashtirilgan sanasi, kalit so'z orqali amalga oshiriladi hamda rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'limga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Bunga misol qilib sport yo'nalishiga oid ma'lumotlarni qidirishni Google tizimidan foydalanib qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqamiz.

Brauzer adreslar qatoriga google.uz (google.ru, google.com) sayt nomini yozamiz va Enter tugmasini bosamiz. Natijada quyidagi sahifa ochiladi (4.1-rasm).



4.1-rasm Google qidiruv tizimining bosh sahifasi.


Ushbu sahifaning o'rtasida joylashgan qidiruv maydoniga masalan "sport yangiliklari" kalit so'zini kiritamiz va Enter tugmasini bosamiz. Natijada ushbu kalit so'zga mos bo'lgan qidiruv natijalari hosil bo'ladi.



4.2-rasm Google qidiruv tizimida soʻrovlar natijasi.


Qidiruv natijasi veb-sahifa manzili va qisqacha maʼlumot koʻrinishida har bir sahifada 10 tadan qilib chiqariladi(4.2-rasm).

Kerakli boʻlgan veb sahifa sichqoncha strelkasini ustiga oborgan holda tanlanadi va tegishli boʻlgan veb sahifa ochiladi (4.3-rasm).



4.3-rasm. Qidiruv natijasi

Google qidiruv tizimidan foydalanib kiritilgan kalit soʻzga mos rasm va video maʼlumotlarni ham izlash mumkin. Buning uchun qidiruv natijasi hosil boʻlgandan soʻng qidiruv tizimining menyular qatoridan mos ravishda Картинки yoki Видео boʻlimlarini tanlash kifoya (4.4-rasm).



4.4-rasm. Qidiruv natijasini qo‘shimcha sozlamalari

Microsoft Bing sun’iy intellektga asoslangan qidiruv tizimi.



Microsoft Bing (Bing nomi bilan tanilgan) — Microsoft kompaniyasiga tegishli va boshqariladigan veb-qidiruv tizimi. Xizmat Microsoftning oldingi qidiruv tizimlaridan kelib chiqqan: MSN Search, Windows Live Search va keyinroq Live Search. Bing turli xil qidiruv xizmatlarini, jumladan, veb, video, rasm va xaritalarni qidirish mahsulotlarini taqdim etadi. U ASP.NET yordamida ishlab chiqilgan.

Microsoft kompaniyasining Live Search o‘rnini bosuvchi Bing 2009–yil 28–mayda Kaliforniyaning San-Diego shahrida bo‘lib o‘tgan All Things Digital konferensiyasida Microsoft bosh direktori Stiv Ballmer tomonidan 2009–yil 3–iyunda chiqarilishi uchun taqdim etilgan. O‘sha paytdagi e‘tiborga molik yangi funksiyalar qatoriga so‘rovlar kiritilayotganda qidiruv takliflari ro‘yxati va Microsoft 2008–yilda sotib olgan Powerset semantik texnologiyasi asosida tegishli qidiruvlar ro‘yxati (“O‘rganuv paneli” deb ataladi) kiritilgan.

2009–yil iyul oyida Microsoft va Yahoo! kompaniyalari Yahoo! Search-ni Bing qo‘llab-quvvatlashi haqidagi kelishuvini e‘lon qildi. Yahoo! 2012–yilda qo‘llashni to‘xtatdi.

2011–yil oktyabr oyida Microsoft foydalanuvchilar uchun tezroq va biroz mosroq qidiruv natijalarini taqdim etish maqsadida yangi qidiruv infratuzilmasi ustida ishlayotganliklarini aytdi. "Tiger"("Yo‘lbars") nomi bilan tanilgan yangi indeks-

xizmatli texnologiya o'sha yilning avgust oyidan boshlab butun dunyo bo'ylab Bingga kiritilgan edi. 2012–yilning may oyida Microsoft qidiruv so'roviga tegishli ma'lumotlarni foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarida qidiradigan “Yon panel” ijtimoiy funksiyasini o'z ichiga olgan qidiruv tizimining navbatdagi dizaynini e'lon qildi.

BitFunnel qidiruv tizimini indekslash algoritmi va qidiruv tizimining turli komponentlari 2016–yilda Microsoft tomonidan ochiq manbaga aylantirilgan.

2018–yil oktabr holatiga ko'ra, (Microsoft) Bing qidiruv tizimi Google (77%) va Baidu (14.45%) dan keyin dunyo bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. Uning ulushi 4.58% ni tashkil qilardi. Bing-ning asosiy kuchi hisoblangan Yahoo! Search-da 2.63% qismdagi qidiruv hajmi bor.

4.2. Jismoniy tarbiya va sportda telekommunikatsiya texnologiyalari

QR-kod (Quick Response Code) – inglizcha “**Quick Response**” so'zlaridan olingan bo'lib, “tezkor javob” ma'nosini beradi. Ushbu tizim 1994 yilda Yaponiyaning *Denso-Wave* kompaniyasi tomonidan yaratilgan.

QR-kod maxsus tarzda kodlangan qandaydir bir ma'lumot, kvadrat ko'rinishidagi tasvir. **QR-kod** orqali belgilardan iborat axborotlarni kodlash mumkin. Bunday axborotlar sifatida sayt manzili, elektron tashrifnoma (vizitka), telefon, elektron pochta manzili, biror obyektning joylashgan koordinatalari va shu kabi ma'lumotlar ishlatilishi mumkin. Bitta QR-kod 7089 ta raqam yoki 4296 ta harf (A4 formatidagi 1-2 sahifa), 1817 iyeroglif⁹ ni o'z ichiga olishi mumkin (4.5-rasm).



QRCoder.ru



4.5-rasm. Tashrifnomada (vizitka) QR-kod

QR kodi sizga quyidagi ma'lumotlarni tezda kodlash va o'qish (dekodlash) imkonini beradi:

- matnlar;
- turli saytlarning URL manzillari;
- ma'lumotni yuklab olish uchun faol havolalar;
- internet havolasi bo'yicha tezkor o'tish;
- elektron xat yoki SMS yuborish;
- manzilning joylashuvini aniqlash;
- Wi-Fi (internet) routeriga avtomatik tarzda ulanish mumkin;
- reklama va boshqalar.

Shuningdek, QR kodi tizim turli savdo jarayonlarda ommalashdi, ya'ni mahsulot yorlig'ida, kommunal xizmatlar kvitansiyasida yoki veb-sayt sahifalarida topish mumkin.

QR kod yordamida odatdagi shtrix-kodga qaraganda ancha katta hajmdagi ma'lumotlarni kodlash mumkin. o'rnatilgan kodni foydalanuvchining shaxsiy qurilmalari (smartfon, planshet) dekodlash uchun ishlatilishi mumkin, bu faqat bitta qurilmada bo'lgan sinfdan ishlashni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Bu kodning bosh afzalligi shundaki, u skanerlovchi uskuna (mobil telefon, fotoapparat yoki qo'l skaneri) yordamida oson va tez o'qish hamda kodlash imkonini beradi (4.6-rasm).



4.6-rasm. Mobil telefonda QR-kod skanerlash

QR kod qo'llanishining asosiy tamoyili shundaki, u giper havola tarzida ishlay oladi. Bu birdaniga ko'p ma'lumot haqida xabar berish zarur bo'lgan holatlarda yoki uni soddalashtirish kerak bo'lganda juda qulay vosita sanaladi. QR kod elektron ma'lumotlar uzatish tamoyiliga asoslanadi. Bu, ayniqsa, ko'p miqdordagi axborotni

uzatish yoki undan foydalanishni soddalashtirishda qo‘l keladi. QR kod surati mahsulot yoki xizmatni tanlash jarayonini yengillashtirishga yordam beradi, axir qadoq yoki reklama plakatidagi mana shu kichik kvadratchada 4296 tagacha belgi sig‘diriladi. U aloqa jarayonini optimallashtirishga ham xizmat qiladi, masalan, aksariyat holatlarda tashrif qog‘ozidagi nishonchada birgina tugmani bosish bilan kontaktlaringiz ro‘yxatiga qo‘shiladigan telefon raqami shifrlangan bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, QR kodlar yordamida havoladan o‘tish, elektron xat, SMS yuborish, manzil joylashuvini bilish va boshqa ko‘plab amallarni bajarish mumkin.

QR-kodni yaratish uchun kerakli axborot o‘lchami aniqlangan holda tayyorlab olinadi va maxsus generator dasturidan foydalaniladi. Masalan, *qrcoder.ru* saytida onlayn tarzda yoki *QR-Code Studio* dasturini <https://www.tec-it.com/> saytidan kompyuterga yuklab, ishga tushirish orqali *QR*-Codeni yaratish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida “QR- online” – Uzcard va HUMO to‘lov terminal tizimlarida to‘lov va pul o‘tkazmalarida (QR-to‘lovlari) amalga oshirilmoqda. Ushbu onlayn imkoniyat O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish orqali shaxsga naqd pul yoki bank kartalarini olib yurmaslik imkonini beradi. To‘lov uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar to‘lov ilovasi ichida mavjuddir.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish

Hozirda hayotimizni internetsiz, axborotsiz tasavvur qilish qiyin. Yer yuzidagi deyarli har bir inson jahon global tarmoq resurslariga kirish imkoniyatiga ega. veb-texnologiyalarning rivojlanishi va ularning zamonaviy jamiyatga ta’siri an’anaviy aloqa yo‘nalishlarining o‘zgarishiga, Internetda muloqot qilish usullari va shakllarining o‘zgarishiga olib keldi. Internet turli shaharlar va mamlakatlardagi odamlar o‘rtasida ma’lumot, bilim va muloqotni to‘siqsiz uzatish hamda almashish uchun platformaga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot hozir butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlarning kundalik hayotining bir qismiga aylandi. Internet odamlarga istalgan vaqtda muloqot qilish imkonini berdi va ijtimoiy tarmoqlar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni onlayn o‘rnatish, ijtimoiy komponentini faollashtirish imkonini beruvchi o‘ziga xos vositadir. Hozirda “ijtimoiy tarmoqlar”dan foydalanish mashhur bo‘ldi. Ular haqida eshitmagan odam yo‘q. Ijtimoiy tarmoqlar interaktiv ko‘p foydalanuvchini Veb-sayt bo‘lib, uning tarmoq ishtirokchilarining o‘zlari kontentlarni to‘ldiradi. Sayt — bu umumiy manfaatlar bilan birlashgan foydalanuvchilar guruhi bilan muloqot qilish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan ijtimoiy muhit. Bularga so‘nggi paytlarda faol rivojlanayotgan tematik tarmoq forumlari va boshqalar kiradi.

Ta’lim jarayonida “Ijtimoiy tarmoqlar”dan foydalanish ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida interaktiv hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda ma’lumotlarni barchasini “Ijtimoiy tarmoq” serverida arxivda saqlash va uni internetga kirish imkoni bo‘lgan istalgan joyda olish imkoniyati mavjud.

Ijtimoiy tarmoq — umumiy manfaatlar, umumiy sabablar yoki bir- biri bilan muloqot qilish uchun boshqa sabablarga ko‘ra bog‘langan odamlar jamoasi.

Internetda ijtimoiy tarmoq — bu dasturiy ta‘minot xizmati, guruh yoki guruhlardagi odamlarning o‘zaro muloqoti uchun platforma. Internet nuqtai nazaridan, bu virtual tarmoq, uning foydalanuvchilari, shuningdek, global tarmoq saytlarida ularning manfaatlariga mos keladigan turli foydalanuvchilar va axborot resurslari o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish uchun xizmatlarni taqdim etish vositasi.

Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlarning shakllanishi World Wide Webning eng katta yutug‘i hisoblanadi.

“*Ijtimoiy tarmoqlar*” — bu ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish va tartibga solish uchun mo‘ljallangan platforma, onlayn xizmat yoki Web-sayt bo‘lib, ularning vizual tasvirlardir.

Ta‘lim sohasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy imkoniyatlari:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda ijodkor yoshlarni ma‘lum bilim yo‘nalishiga intilish, shuningdek, ushbu bilimlarni amaliyotda qo‘llash jarayonida hamkorlik qilish istagini birlashtiruvchi muayyan guruhlar yoki jamoalar tashkil etish orqali yoshlar bilan ishlashni kengaytirish.
2. Ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchilar o‘zlari uchun qulay vaqtda tarmoqdagi o‘quv kontentlarni olish va berish imkoni beradi. Shuningdek, har bir ta‘lim oluvchi bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati mavjudligi.
3. O‘quv kurslardagi axborotlarni o‘tkazib yuborilganda ixtiyoriy vaqtda munozaralarda qatnashish va vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy afzalliklari:

- bepulligi, ya‘ni. hech qanday server uchun texnik xizmat ko‘rsatish talab qilinmaydi, shuningdek, saytni rivojlantirish uchun pul to‘lash shart emas;
- ularning aksariyatida ro‘yxatdan o‘tish va foydalanish mutlaqo bepul, bu esa pulni tejash imkonini beradi;
- aksariyat hollarda turli xil kontentni, masalan, audio-video fayllar, tasvirlar va h.k.larni saqlash uchun cheksiz disk maydoni taqdim etiladi;
- xakerlik hujumlaridan ishonchli himoya, ma‘lumotlarni saqlash ishonchliligi;
- pochta xizmatlari va axborot bildirishnomalarining qulayligi, bu ularni ta‘lim oluvchilar bilan muloqot qilishda qulaylik yaratadi;
- o‘quv jarayoni kuzatish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn ishtirok etish imkoniyati va boshqalar.

Ijtimoiy tarmoqlardan o‘quv jarayonida foydalanish ma‘lumotlar almashinuviga yordam beradi, ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy qobiliyat va qiziqishni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Bu omillarning barchasi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, faol foydalanayotgan o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish orqali hal etish mumkin.



YouTube, LLC-videomateriallar hostingini taqdim etuvchi [Websayt](#). YouTube dan foydalanish qulay va ko'rish osonligi tufayli juda

ham mashhur va kirib ko'ruvchilari soni ko'pligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadigan saytdir. Saytda video ko'ruvchilar soni kuniga 2 milliarddan ortiq hisoblanadi. Saytda professional videolavhalardan tortib, havaskor videolar, videobloglarga taqdim etilgan.



Telegram- bepul dastur, tezkor aloqa almashish vositasidir. Har qanday qurilmalarga o'rnatish mumkin, masalan, kompyuter, smartfon telefon, planshet, televizor shuningdek onlayn versiyalari ham mavjud.

Shuningdek, foydalanuvchilar matn, tasvir, video, audio va ko'p turdagi fayllarni (docx, rar, mp4, mp4 va hokazo), ovozli va video qo'ng'iroqlarni amalga oshirish, kanal va guruhlarda ovozli hamda video muloqotlarda ishtirok etish hamda havolalarni kompyuterdan smartfonga yuborish qulay bo'lgan dastur.

Telegram boshqa messenjerlardan farqli botlar va kanallar yaratish imkoniyati mavjud.

Botlar -Telegram messenjeri dasturining ichidagi foydalanuvchilarning savollariga javob berish, ma'lumot qidirish, mijozlarga maslahat berish imkonini beruvchi dastur. Kanallar — bu unga a'zo bo'lgan cheksiz foydalanuvchilarga xabar yuborish imkonini beruvchi chatlar. Ular blog va yangiliklar tasmasining aralashmasidir.


Kanallar – esa o'zida ko'pgina foydalanuvchilarni jamlab, ularga ma'lumotlar almashish joy. Telegramning rivojlanishi ko'plab ilmiy- ommabop kanallarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ixtiyoriy soha mutaxassislari shu jumladan sport mutaxassislari sport turi bo'yicha alohida shaxsiy kanalini yuritishi hamda faoliyatidagi yangiliklar, fikrlar va yutuqlarini e'lon qilib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Sport ta'lim jarayonida Telegram messenjerdan foydalanib har bir sport turi bo'yicha alohida chatlarni yaratish bu esa sportda Telegram tarmog'ini targ'ibotchi sifatida yoshlarini jipslashtirish, tarmoqda sportga oid ommabop guruhlar orqali sportni respublikamizda yanada rivojlantirishda bevosita xizmat qiladi.

Web va mobil ilovalar ko'pincha birgalikda ishlaydi, bu sizga turli xil kompyuterlar va qurilmalardan tarkibingizga kirish imkonini beradi.

Google Translate dasturi

Google Translate — foydalanuvchilarning ishlatishi uchun eng mashhur onlayn tarjima vositalaridan biridir. Tarjima qilingan matn sifatiga ega bo'lgan juda ko'p tillarda tarjima vositasi bo'lib, u DeepL kabi yaxshi emas. Google Translate 100 tilidan ko'proq narsani taklif qiladi va bir vaqtning o'zida 30 000 belgilari bilan tarjima qilish imkoniyatiga ega.



4.6-rasm. Google tarjimon tizimi bosh sahifasi

Agar ko'p o'tmay, bu juda ko'p tilli tarjima vositasi juda past sifatli tarjimalar taklif qilsa, u oxirgi paytlarda ishonchli tarjima sayti va dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan sayt bo'lish uchun juda ko'p rivojlandi. Bir marta platformada faqat matn tanlashni kiritish va tarjima vositasi tilni avtomatik ravishda aniqlaydi.

Veb-sahifani saytning URL manzilini ko'rsatib tarjima qilishingiz mumkin. SHunday qilib, veb-sahifalarni avtomatik ravishda Google Chrome qidiruv tizimida Google Translate kengaytmasi qo'shib tarjima qilishi mumkin. Hujjatlarni kompyuteringiz yoki smartfoningizga tarjima qilish oson. PDF, Word kabi fayllarning bir nechta turini tarjima qila olamiz va biz so'zlarni bir daqiqada rasmga tarjima qila olamiz. Hozirda Google Tarjimon 134 ta tilni qo'llaydi. 2014-yil dekabr oyida Google Tarjimonga o'zbek tili ham qo'shildi.

Google tarjimoniga sodiq bo'lgan ushbu tarjimon katta qulaylik va ajoyib soddalikdir, u reklama yoki boshqa chalg'itadigan narsalarni o'rnatmaydi. Inglizcha-fransuz va boshqa tillarning tarjimasi juda tezdir va matn kiritilgandek amalga oshiriladi. Mavjud bo'lgan ma'ruzachi sizga yaxshi matnli matnni yoki tarjima qilingan matnni tinglash imkonini beradi. Google tarjimasi foydalanuvchilarga tarjima qilingan matnda ma'lum so'zlarni bosish va boshqa tarjimalardan foyda olish imkonini beradi.

Imlo va grammatikasiga tekshirgach tarjima qilinadigan matnda noto'g'ri yozilgan so'zlar bilan bog'liq. Yuz minglab tarjimalarning ma'lumotlar bazasi bilan

Google tarjimon har doim eng munosib tarjima qilishni boshqaradi. Qayta aloqa tufayli uni har kuni yaxshilash mumkin, bu esa yanada kuchli tarjimalarga ega bo'lish imkonini beradi.

Microsoft Translator

Microsoft Translator shirkati nomi Bill Geyts firmasi tomonidan taklif qilingan. Bu muhim vosita bo'lish va boshqa Internet-tarjima dasturlarini chetlab o'tishni maqsad qiladi. Bu tarjimon juda kuchli va qirqdan ortiq tillarga tarjima qilingan. Microsoft Translator jonli chat xususiyatini taqdim etib, o'zini boshqa tillarga o'g'irgan kishilar bilan jonli muloqot qilish imkonini beradi.

Ushbu original funksiya juda qulay va boshqa tillarda gapiradigan, juda ravon bo'lgan odamlar bilan suhbatlar qiladi. Microsoft Translator Android va i OS ilovalarida mavjud. Oflayn rejimda foydalanuvchilar matnlarni aloqasiz tarjima qilishga imkon beradi. Dasturning ushbu onlayn rejimi Internetga ulangan kabi bepul bo'lib, bepul yuklab olish uchun til paketlarini taklif qiladi.

SHu sababli samolyot rejimida smartfon bilan chet elga safar paytida dasturdan foydalanishni davom ettirish mumkin. Microsoft Translatorda i OS-da har qanday matn yoki hujjatni chet tiliga tarjima qilish imkonini beruvchi yozishni aniqlash vositasi mavjud.

Ushbu dastur sodda va chiroyli bo'lgan grafik dizaynni taklif etadi. Tarjimalarning yaxshi sifati, albatta, qayta aloqa qilish imkoniyati bilan bog'liq Google Translate kabi, u manba tilini aniqlaydi va tavsiya etilgan tarjimalarni tinglash imkoniyatini beradi.

Nazorat savollari

1. Axborot qidirish tizimi deganimiz nima?
2. WEB sayt degan nima?
3. On-line sistemalarining qanday turlari bor?
4. WWW.UZ nima?
5. Ma'lumotlarni qidirishning qanday turlari bor?
6. Qanday tarjimon dasturlarni bilasiz?
7. Google Translate qanday dastur?

Amaliy topshiriqlar.

1. Biror bir ma'lumotni uning turi (matn, rasm, musiqa, video), joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidring.
2. Google Translate dasturida biror bir matnni kiritib rus va ingliz tillariga tarjima qiling.

3. Bing qidiruv tizimidan mutaxassislik bo'yicha ma'lumotlarni toping.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi o‘RQ -637-sonli Qonuni..
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
4. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
5. Сабирова Д.А., Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
6. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., “Axborot texnologiyalari”, o‘zDJTI, T.: 2008 y. 120 b.
7. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish”, Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019 y.-55 b.
8. Tolametov A.A., Sport metrologiyasi //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.-220b.
9. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021 y.
10. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.
11. Sabirova D.A., Multimedia tizimlari va texnologiyalari. o‘quv qo‘llanma. — T: TDIU, 2014 y.,
12. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi. Uslubiy qo‘llanma. Farg‘ona 2023 y.

V KEYSLAR BANKI

«Keys-stadi» — inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	• yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻini belgilash	• individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali uning topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	• individual va guruhda ishlash; • muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; • har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; • muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot	• yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qoʻllash • imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish



GLOSSARIY

VI. GLOSSARIJ

Gipermatn	assotsiativ bog‘langan bloklar ko‘rinishida taqdim etilgan (boshqa matnli hujjatlarga yo‘l ko‘rsatuvchi) matn.	Computer representation of text that is automatically supported semantic connection between the selected concepts, terms or sections; news program that will appear on the display hypertext screen and switch on the semantic
Gipermatnli tizim	elektron hujjatlar kutubxonasini yaratishni ta‘minlaydigan vosita.	A set of text files written in HTML, which defines the presentation of information (markup) and the structure of links of these files (hypertext)
Video anjuman	turli geografik manzillardagi foydalanuvchi guruhlari orasida raqamli videoyozuv yoki oqimli video ko‘rinishida ma‘lumotlarni almashinish asosida yig‘ilish va munozaralar	Electronic interactive communication distant from each other students and teachers, carried out in real-time via the telecommunication equipment
Gipermedia	Matndan tashqari multimedia imkoniyatlarini hamo‘zida mujassamlashtirgan ma‘lumotlarga yo‘l ko‘rsatuvchi hujjatlar	Document element for communicating information between the various components within the document in other documents, including those
Global tarmoq	mintaqaviy (qit‘alardagi) kompyuterlarni o‘zida birlashtirish imkoniyati	Network in which the computers are combined in different countries, in different continents
Grafik muharrir	tasvirlarni tahrir qilishni ta‘minlaydigan amaliy dastur	Training programs and editing images on a computer. Modern graphics editors allow you to create moving, animated images
Individual (yakkama-yakka tartibda) masofaviy	telekommunikatsiya va ta‘limni ta‘minlash uchun zarur dasturiy vositalariga ega bo‘lgan	distance learning with the use of textbooks, personal computers and computer networks

Internet	yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'i	open world information system consisting of interconnected computer networks, providing access to remote information and
Internet- darslik	ma'lum fan bo'yicha yagona interfeys bilan ta'minlangan, internetga	multimedia hypertext electronic textbook used in the Internet as a constantly evolving teaching and referral system.
Intranet	internetning ko'pgina funksional imkoniyatlariga ega bo'lgan tarmoq	closed corporate network that is based on Internet technologies. Its members can enter a corporate Web site, accessible only to
Kompyuter darslik	o'quv fani yoki uning bo'limini mustaqilo'zlashtirish imkoniyatini	employees of the company. Intranet combines standardization and simplicity inherent in the Internet, with the control of access to corporate information.
Masofaviy ta'lim	ta'limni masofaviy dasturiy vositalari orqali tashkil qilish shakli	educational system, which implements the method of distance learning educational qualification confirmation
Masofaviy o'qitish	axborot — kommunikatsiya texnologiyasi (kompyuterni, telekommunikatsiyalar	distance learning with the use of textbooks, personal computers and computer networks
Ma'lumotlar banki	ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, izlash va qayta ishlashni ta'minlaydigan axborot,	formalized system of information about a domain that contains data about the properties of objects, processes and patterns of usage
Elektron kutubxona	elektron axborot-ta'lim resurslari majmuasi.	a set of electronic books arranged on one or more network servers
Multimedia	axborotni (matn, rasm, animatsiya, audio, video) ifodalashning ko'p imkoniyatini taqdimi	computer systems with integrated audio recordings and video recordings
Multi mediali darsliklar	multimedia texnologiyasi yordamida axborot-ta'lim resurslaridan	interactive tools to simultaneously conduct operations with still images, videos, animated graphical images, text, speech and

Provayder	kompyuterlarning tarmoqli ulanish va axborot almashishini tashkil qiladigan kompaniya	company, a provider of any service
Sayt	grafika va multimediya elementlari joylashtirilgan gipermediya hujjatlari	Internet address server placement. Often referred to as the totality of Webpages located on the server
Server	ma'lumotlarni o'zida saqllovchi, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi,	a network node that contains the data and provides services to other computers; a computer connected to the network and is
Tizim	yagona maqsad yo'lida bir vaqtningo'zida ham yaxlit, hamo'zaro bog'langan tarzda	a plurality of interconnected elements, each of which is connected directly or indirectly with every other element, and any two subsets of this set can not be
Ekspert tizimlar	xulosa chiqarish qoida va mexanizmlari yig'indisiga ega bo'lgan bilimlar ombori	software system that uses expert knowledge expert to effectively solve problems in a narrow domain
Elektron darslik	kompyuter asoslangan o'qitish metodlaridan	hypertext or hypermedia system, placed on the server or the CD-ROM and is available for reading



TESTLAR BANKI

VII Test savollari

№	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Mavzu
1	Axborotni ifodalanishiga ko'ra qanday turlari bor ?	Matnli, rasm, tovush, animatsion	Matnli, kitob, tovush, animatsion	Matnli, rasm, televizor, radio	televizor, radio, rasm, kitob, animatsion	1-mavzu
2	Axborot tizimiga to'g'ri berilgan ta'rifni toping?	kompyuter, kompyuter tarmoqlari, foydalanuvchilar, axborot va dasturiy ta'minot	san'at, mahorat kabi ma'nolar ni bildiradi.	ma'lumotlar ga ishlov berish, kiritish va chiqarish tizimi hamda xotira tizimi	axborot shaklining turi	1-mavzu
3	Axborotni eng kichik o'lchov birligini ko'rsating.?	Bit	Bayt	Kbit	Kbayt	1-mavzu
4	Shaxsiy kompyuter qachon ishlab chiqilgan ?	1973 yil	1990 yil	1945 yil	1960 yil	1-mavzu
5	Modemning vazifasi nimadan iborat ?	Kompyuter signallarini telefon signallariga aylantiruvchi va aksincha telefon signallarini kompyuter signallariga aylantiruvchi qurilma	Kompyuterdagi tasvirlarni ekrandagi kattalash tirib namoyish qilib beradi	Kompyuter yoki kompyuter tarmog'iga yozib olish yoki oqimlar uchun xizmat qiladi	Kompyuter signallarini telefon signallariga buzuvchi	1-mavzu

6	SPF V-1 qanday sport qurilmasi ?	Kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi	Sportchining tinch holatida kompyuter tahlili yordami da tekshirish jihozi	Sportchining harakat faolligi davrida yurak mushaklarining qisqarish tezligi o‘lchaydigan qurilma	Sportchini kuchni rivojlantirish mashq yuklamani to‘g‘ri va samarali bajarish yordam beradigan qurilma	1-mavzu
7	Garmin Fozerunner qurilmasi nima uchun ishlatiladi?	Sportchining harakat faolligi davrida yurak mushaklarining qisqarish tezligi o‘lchaydigan qurilma	Sportchini kuchni rivojlantirish mashq yuklamani to‘g‘ri va samarali bajarish yordam beradigan qurilma	Sportchini kuchni rivojlantirish yordam beradigan qurilma	Sportchi kislorod iste’molni aniqlash va baholash qurilmasi	1-mavzu
8	Sportchi mushaklarini maksimal quvvatini aniqlovchi qurilma nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?	<i>Veloergometr.</i>	Garmin Fozerunner	SPF V-1	SmartSpeed	1-mavzu

9	Avtorizatsiya ...	+Foydalanuvchini ng resurslardan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni	Foydalan uvchilarn i ro'yxatg a olish va ularga dasturlar va ma'lumo tlarni ishlatish ga huquq berish jarayoni	Shaxsning o'zini axborot- kommunika tsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladi gan belgilar ketma- ketligi	Uning egasi haqiqiyligin i aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladiga n belgilar ketma- ketligi	1-mavzu
10	Parol nima?	+Uning egasi haqiqiyligini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma- ketligi	Foydalan uvchinin g resurslar dan foydalani sh huquqlar i va ruxsatlari ni tekshiris h jarayoni	Foydalanuv chilarni ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlar ni ishlatishga huquq berish jarayoni	Shaxsning o'zini axborot- kommunika tsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladi gan belgilar ketma- ketligi	1-mavzu
11	Kompyuter virusi nima?	O'z-o'zidan ko'payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqatiluvchi hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar yetkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi	ekranda obyektlar ning ko'rinish ini formasi va o'lchaml ari	ovozli va video informatsey ali ma'lumotli umumlashg an dastur	tasvirlarni qayta ishlaydigan dastur	1-mavzu

12	Login nima?	+Shaxsning o'zini axborot-kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan belgilar ketma-ketligi	Uning egasi haqiqiyli gini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi	Foydalanuv chining resurslardan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni	Foydalanuv chilarni ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlar ni ishlatishga huquq berish jarayoni	1-mavzu
13	Bir bayt necha bitga teng?	8 bit	18 bit	32 bit	24 bit	1-mavzu
14	Raqamli O'zbekiston – 2030 qachon tasdiqlangan ?	2020-yil 5-oktyabr	2023-yil 30-oktyabr	2019-yil 5-dekabr	2016-yil 14-yanvar	1-mavzu
15	Internet so'zining ma'nosi?	Xalqaro tarmoq	Kompyuter tarmoq	Katta tarmoq	Davlatlararo tarmoq	2-mavzu
16	Internet xizmati taqdim etuvchi tashkilot qanday nomlanadi?	Internet provayder	Server	Domen	Aloqa operatori	2-mavzu
17	O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali qaysi javobda ko'rsatilgan?	+my.gov.uz	gov.uz	lex.uz	qonun.uz	2-mavzu

18	O'zbekiston Respublikasi hukumat portali qaysi javobda ko'rsatilgan?	gov.uz	my.gov.uz	sportedu.uz	edu.uz	2-mavzu
19	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti veb-sayti qaysi javobda ko'rsatilgan?	sportedu.uz	edu.uz	minsport.uz	uzdjtsu.uz	2-mavzu
20	Mobil-ID qanday tizim ?	Shaxsni identifikatsiyalash uchun qo'llaniladigan tizimi	Qidiruv tizimi	Elektron raqamli imzo	Electron sim karta	2-mavzu
21	Elektron raqamli imzo kalitning amal qilish muddati necha yil ?	2 yil	1 yil	5 yil	15 yil	2-mavzu
22	Davlat soliq xizmati organlarining elektron soliq xizmatlari portali qaysi javobda ko'rsatilgan?	my.soliq.uz	my.gov.uz	sportedu.uz	edu.uz	2-mavzu

23	Elektron pochta nima uchun mo'ljallangan?	+Maxsus dastur bo'lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga ma'lumotni jo'natish va qabul qilish mumkin	Internetda ma'lumotlarni izlab topish, ko'rish va qabul qilishni yengillashtiruvchi dastur	Internetda ma'lumotlarni izlab topish, ko'rish va qabul qilish uchun	VEB-sahifalar tuzishda ishlatiladigan gipermatnga asoslangan dasturlash tili	2-mavzu
24	Qaysi javobda elektron pochta manzili to'g'ri yozilgan?	info@edu.uz	info.edu.uz	info.edu@uz	@info.edu.uz	2-mavzu
25	Qaysi javobda milliy elektron pochta tizimimiz to'g'ri ko'rsatilgan?	uMail.uz	gmail.uz	yandexmail.net	outlook.com	2-mavzu
26	Milliy muhofazalangan elektron pochta tizimi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	E xat	uMail.uz	gmail.uz	yandexmail.net	2-mavzu
27	speechpad.ru saytining vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?	nutq kiritish xizmati	Qidiruv tizimi	Sport yangiliklari	Dunyo xabarlar	2-mavzu
28	Ziyonet — bu:	Jamoat axborot ta'lim tarmog'i	Internet-magazin	Internet provayder (kompaniya) nomi	Savdo maydoni	2-mavzu
29	Ziyonet jamoat axborot ta'lim tarmog'i manzili qaysi javobda keltirilgan?	ziyonet.uz	www.uz	zn.uz	portal.uz	2-mavzu

30	ZiyoNET portalining sayt-satellitlari qaysi domenga joylashtiriladi?	ziyonet.uz	zn.uz	fikr.uz	utube.uz	2-mavzu
31	Ziyonet ta'lim portali nechta bo'limdan iborat?	8 ta	10 ta	12 ta	5 ta	2-mavzu
32	Respublikamizda yaratilgan ta'lim muassasalarini ng ta'lim tarmog'ini ko'rsating?	ziyonet	edu	sportedu	uzedu	2-mavzu
33	Fikr.uz sayting vazifasi?	Foydalanuvchilar ning mualliflik maqolalarini chop etish hamda boshqa foydalanuvchilar bilan birga muhokama qilish	Tarmoq foydalanuvchilari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish	ZiyoNET portali foydalanuvchilari o'rtasida axborot almashish	Fayllarni jo'natish va qabul qilish	3-mavzu
34	uTube.uz – bu	Ochiq ta'limiy video portal	O'zbekiston videoportali	O'yin portali	Ijtimoiy tarmoq	3-mavzu
35	uTube.uz tarmog'iga joylashtiriladigan video fayli hajmiga qanday talab qo'yiladi?	2000 Mb dan oshmasligi kerak	1000 Mb dan oshmasligi kerak	500 Mb dan oshmasligi kerak	256 Mb dan oshmasligi kerak	]3-mavzu
36	usport.uz — bu...	sportga oid yangiliklar sayti.	Ochiq ta'limiy video portal	O'zbekiston video portali	O'yin portali	3-mavzu

37	Utube.uz foydalanuvchilar saytga qaysi formatdagi videolarni yuklashlari mumkin ?	avi, webm, mp4	Word, excel, power point	Rasm, belgi, tovush	Hamma javob tog'ri	3-mavzu
38	ZiyoNET portalidan ro'yxatdan o'tish uchun qaysi elektron pochtdan ro'yxatdan bo'lish zarur?	Umail.uz	Gmail.uz	Yandex.ru	Mail.ru	3-mavzu
39	O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi rasmiy veb saytini aniqlang.	www.minsport.uz	www.sport.uz	www.sportedu.uz	www.trener.uz	3-mavzu
40	Qidiruv tizim vazifasi to	Mavjud bo'lgan ma'lumotlarning keng to'plamida qidirish orqali foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni tezda olish imkoniyatini beruvchi algoritmlar va ularni amalga oshiradigan kompyuter dasturlari to'plami	Ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni qidirishga mo'ljallangan dastur	Biror sohaga oid ma'lumotlarni qidirish	Microsoft Access dasturi	4-mavzu
41	Qidiruv tizimlari qanday turdagi ma'lumotlarni topish uchun mo'ljallangan?	Matn, rasm, video, audioyozuv	Fayllar, papkalar	Animatsiyalar, papkalar, fayllar, rasmlar	Kompyuterlar, fayllar, papkalar	3-mavzu

42	Qaysi javobda qidiruv tizimlari keltirilgan?	Google, yandex, yahoo, bing	Mail, excel, yahoo, ziyonet	Yandex, word, access	Ziyonet, word, google, gmail	3-mavzu
43	Qidiruv tizimlari nima asosida qidiruvni amalga oshiradi?	Kalit soʻzlar	Papka nomi	Fayl nomi	Fayl turi	4-mavzu
44	Bing dasturini vazifasi toʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping	Qidiruv tizimi	Matn muharriri	Jadval muharriri	Rasm muharriri	4-mavzu
45	Qrcod kiritish uchun qaysi saytdan foydalaniladi?	Qrcoder.ru	Ziyonet.uz	Google.com	Sportedu.uz	4-mavzu
46	www.uz bu:	Milliy qidiruv tizimi	Internet-magazin	Internet provayder	Savdo maydonchas i	4-mavzu
47	Telegram botlarning vazifasi toʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping?	foydalanuvchilarning savollariga javob berish, maʼlumot qidirish, mijozlarga maslahat berish imkonini beruvchi dastur	foydalanuvchilarga xabar yuborish imkonini beruvchi chatlar	blog va yangiliklar tasma-sining aralashmasi	koʻpgina foydalanuvchilarni jamlab, ularga maʼlumotlar almashish joy	4-mavzu
48	Google Tarjimon yordamida qanday maʼlumotlarni tarjima qilish mumkin?	+Matnlar, hujjatlar, veb-sahifalar	Rasmlar, matnlar	Matnlar, hujjatlar	Hujjatlar, veb-sahifalar	4-mavzu

49	Telegram kanallarning vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?	o'zida ko'pgina foydalanuvchilarni jamlab, ularga ma'lumotlar almashish joy	foydalanuvchilarning savollari ga javob berish, ma'lumot qidirish, mijozlar ga maslahat berish imkonini beruvchi dastur	foydalanuvchilarga xabar yuborish imkonini beruvchi chatlar	blog va yangiliklar tasma'sining aralashmasi	4-mavzu
50	QR-codeda bir vaqtning o'zida nechta belgini sig'dira oladi ?	4296 ta	1582 ta	150 ta	500 ta	4-mavzu



ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.O'zbekiston, 2023-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi o'RQ -637-sonli Qonuni..
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5349-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gio'RQ -576-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gio'RQ-394-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5924-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3031-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 355-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

- 18.Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
- 19.Сабирова Д.А., Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
- 20.Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., “Axborot texnologiyalari”, o‘zDJTI, T.: 2008 y. 120 b.
- 21.Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish”, Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019 y.-55 b.
- 22.Tolametov A.A., Sport metrologiyasi //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.-220b.
- 23.Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. T.: Umid Design, 2021 y.
- 24.Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish //o‘quv qo‘llanma. T.: Umid Design, 2021 y.
- 25.Sabirova D.A., Multimedia tizimlari va texnologiyalari.o‘quv qo‘llanma. — T: TDIU, 2014 y.,
- 26.Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi. Uslubiy qo‘llanma. Farg‘ona 2023 y.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://edu.uz/>
2. <http://lex.uz/>
3. <http://sportedu.uz/>
4. <http://lib.sportedu.uz/>
5. <http://ziyonet.uz/>
6. <https://umail.uz/>

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası dotsenti v.v.b. Ishonkulov Ashraf
Kurbonkulovichning "Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli o'quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

"Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli o'quv-uslubiy majmua maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun metodik-amaliy yo'riqnomadir. Unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining nazariy asoslari bilan birga, amaliy mashg'ulotlar, aniq vositalar va masofaviy ta'lim jarayonlari muhokama qilinadi.

O'quv-uslubiy majmuada axborot texnologiyalari tushunchasi, jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalarini qo'llash, elektron sport anjomlari, axborot xavfsizligi, O'zbekiston Respublikasi hukumat portali, davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar, onlayn tizimlar va ulardan foydalanish, Ziyonet ta'lim portali va uning imkoniyatlari, fikr.uz, utube.uz portallari resurslari bilan ishlash, kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi mavzularga oid aniq tavsiyalar va misollar taqdim etilgan.

"Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli o'quv-uslubiy majmua maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun zarur bo'lgan keng qamrovli resursdir. Nazariy asoslar va amaliy ko'rsatmalar uyg'unlashtirilgani, real misollar bilan boyitilgani, shuningdek, qayta ishlash va taqdimot vositalariga alohida e'tibor berilgani mualliflarning ijobiy tarafidir.

O'quv-uslubiy majmua tushunarli va aniq tilda bayon etilgan bo'lib, unga qo'yilgan barcha talablarni qanoatlantiradi va uni chop etishga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, "Iqtisodiyot va muhandislik fanlari" kafedrası
o'qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)



J.Mannabov

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası dotsenti v.v.b. Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovichning "Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli o'quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

"Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli mazkur o'quv-uslubiy majmua maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilari malaka oshirish kursi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maktabgacha ta'lim tizimida samarali foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar yoritilgan.


O'quv-uslubiy majmuaning muhim afzalliklaridan biri shundaki, unda nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, test savollari, nazorat topshiriqlari va glossariy keltirilgan bo'lib, bu tinglovchilarga mustaqil ishlash, bilimlarini mustahkamlash va o'z-o'zini baholash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun axborot-kommunikatsiya vositalarini maktabgacha ta'lim jarayonida qanday qo'llash mumkinligi bo'yicha aniq va sodda misollar keltirilgani alohida e'tiborga loyiqdir.

O'quv-uslubiy majmuada axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot texnologiyalari, axborot xavfsizligi, internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanish yo'llari, Ziyonet ta'lim portali va uning imkoniyatlari, fikr.uz, utube.uz portallari resurslari bilan ishlash, kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi mavzular bosqichma-bosqich, sodda va tushunarli tilda bayon etilgan.

"Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" nomli mazkur o'quv-uslubiy majmua maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirishda, ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etishda, shuningdek, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'quv-uslubiy majmua tushunarli va aniq tilda bayon etilgan bo'lib, unga qo'yilgan barcha talablarni qanoatlantiradi va uni chop etishga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası dotsenti v.v.b



Z.Saydullayev

